Annotation: Natural gas is currently a primary raw material for the energy, chemical, and technological industries. However, the acidic gases found in its composition—hydrogen sulfide (H_2S) and carbon dioxide (CO_2)—pose a risk to human health, cause corrosion in equipment and pipelines, and reduce gas quality. Therefore, the issue of removing these harmful components from natural gas is globally relevant and critical.

Keywords: Natural gas, H_2S, CO_2, diethanolamine, calcium hydroxide, absorption, hybrid solution, gas purification, energy efficiency.

Kirish

Tabiiy gaz — hozirgi zamon iqtisodiyotining eng muhim energiya manbalaridan biri bo‘lib, sanoat, transport va maishiy sohalarda keng qo‘llaniladi. Biroq uning tabiiy holatda chiqadigan tarkibida ko‘plab zararli aralashmalar mavjud bo‘ladi. Ayniqsa, H_2S va CO_2 gazi tabiiy gazning sifat ko‘rsatkichlarini keskin pasaytiradi hamda uni tijorat maqsadlarida ishlatishni qiyinlashtiradi [1]. Vodorod sulfid (H_2S) nafas olish tizimi uchun zaharli gaz bo‘lib, juda kichik konsentratsiyada ham inson salomatligiga xavf tug‘diradi. U metall quvurlar va

ISSN 3030-3907

uskuna qismlarida korroziyani kuchaytiradi, natijada ishlab chiqarish tizimlarining ishonchliligini pasaytiradi. Karbonat angidrid (CO_2) esa gazning issiqlik qiymatini kamaytiradi, siqish va tashish jarayonlarida energiya sarfini oshiradi [2]. Shu sababli tabiiy gazni ushbu zararli komponentlardan tozalash — ya'ni desulfurizatsiya va dekarbonizatsiya jarayonlari - neft-gaz sanoatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [2]. An'anaviy usullar orasida aminli absorbentlardan foydalanish keng tarqalgan bo'lsa-da, ularning iqtisodiy va ekologik kamchiliklari mavjud [2-3]. Tabiiy gazni tozalashda eng ko'p qo'llaniladigan usullar — bu absorbsiya, adsorbsiya, membranali ajratish va kriogen texnologiyalaridir [3]. Ularning ichida absorbsiya eng samarali va texnologik jihatdan qulay hisoblanadi. Absorbsiya jarayonida kislotali gazlar maxsus kimyoviy eritmalarda yutiladi, so'ngra tozalangan gaz ajratib olinadi [4]. Eng ko'p o'rganilgan absorbentlar qatoriga monoetanolamin (MEA), di-etanolamin (DEA), metildietanolamin (MDEA) va trietanolamin (TEA) kiradi. Ushbu aminli birikmalar CO_2 va H_2S bilan kimyoviy reaksiyaga kirishib, barqaror tuzlar hosil qiladi. Ammo amalda ularning bir qator jiddiy kamchiliklari mavjud:

1. Regeneratsiya (qayta tiklash) jarayonida yuqori energiya sarfi talab etiladi;
2. Yuqori haroratda termik parchalanish yuz beradi;
3. Korroziy ta'siri kuchli bo'lib, uskuna xizmat muddatini qisqartiradi;
4. Amindan chiqadigan chiqindilar ekologik muhitga zarar yetkazadi.

Shu sababli so'nggi yillarda gibrid absorbentlar — ya'ni kimyoviy va fizik yutilish xususiyatlariga ega aralashmalarni qo'llash bo'yicha tadqiqotlar kengaymoqda. Bunday aralashmalarda bir necha faol komponent birlashtiriladi, natijada gazni tozalash samaradorligi ortadi, energiya sarfi kamayadi va ekologik xavfsizlik yaxshilanadi [4].

Xususan, amin va gidroksid aralashmalari o'zining yuqori reaksion qobiliyati bilan ajralib turadi. Kaltsiy gidroksid ($Ca(OH)_2$) arzon, barqaror va ekologik xavfsiz modda bo'lib, uni di-etanolamin bilan birgalikda ishlatish H_2S va CO_2 ni yutish samaradorligini sezilarli oshiradi. Bu esa jarayonni energiyatejamkor va iqtisodiy jihatdan foydali qiladi. Shunday qilib, ushbu tadqiqotda tabiiy gazni H_2S va CO_2 dan tozalashda DEA–$Ca(OH)_2$ gibrid eritmasining samaradorligi o'rganildi. Maqsad — yangi, arzon va ekologik xavfsiz absorbent yordamida tabiiy gazni yuqori darajada tozalash sharoitlarini aniqlashdan iborat [5].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Birinchi marotaba di-etanolamin (DEA) va kaltsiy gidroksid ($Ca(OH)_2$) asosidagi gibrid absorbent tizimi tabiiy gazni tozalash uchun qo'llandi. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, DEA–$Ca(OH)_2$ aralashmasi an'anaviy aminli absorbentlarga nisbatan yuqori tozalash samaradorligi (98–99%) hamda kam energiya sarfi bilan ajralib turadi. Simulyatsiya natijalariga ko'ra, 27,4–30% oralig'idagi aralashma eng maqbul texnologik diapazonni ta'minlaydi.

ISSN 3030-3907

Taklif etilgan usul tabiiy gazni qayta ishlashda energiya sarfini 10–15% gacha kamaytiradi. Arzon xomashyo ($Ca(OH)_2$) dan foydalanish ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartiradi. Jarayonning ekologik xavfsizligi oshib, korroziya darajasi pasayadi. Ushbu gibrid absorbent tabiiy gazni tayyorlash va qayta ishlash zavodlarida amaliy tatbiq etish uchun tavsiya etilishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida asosiy absorbent sifatida di-etanolamin (DEA) va kaltsiy gidroksid ($Ca(OH)_2$) ishlatildi. Di-etanolamin ($C_4H_{11}NO_2$) 99,5% tozalikka ega bo‘lib, laboratoriya sinflaridagi kimyoviy modda sifatida qo‘llanildi. Kaltsiy gidroksid esa oq rangli chang holatidagi gidroksid bo‘lib, sanoat miqyosida keng qo‘llaniladigan arzon reagent hisoblanadi [6].

Gaz tarkibidagi asosiy komponentlar — metan (CH_4), etan (C_2H_6), karbonat angidrid (CO_2) va vodorod sulfid (H_2S) laboratoriya sharoitida maxsus gaz ballonlari orqali ta’minlandi. Har bir gazning boshlang‘ich konsentratsiyasi quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Tajribada ishlatilgan tabiiy gaz tarkibi.

Gaz komponenti	Dastlabki hajm ulushi (%)	Xavf darajasi	Izoh
Metan (CH_4)	80.0	Past	Asosiy gaz komponenti
Etan (C_2H_6)	5.5	Past	Yordamchi komponent
Karbonat angidrid (CO_2)	10.0	O‘rta	Kislotali gaz
Vodorod sulfid (H_2S)	4.5	Yuqori	Zaharli gaz

Tajriba ishlari laboratoriya o‘lchamdagi absorbsiya kolonnasi yordamida olib borildi. Kolonna zanglamaydigan po‘latdan tayyorlangan bo‘lib, balandligi 1,2 metr, diametri 0,15 metrni tashkil etdi. Uning ichida gaz va suyuqlik fazalari orasidagi aloqa maydoni oshirilishi uchun maxsus to‘ldirgich joylashtirilgan [7].

Kolonnaning yuqori qismidan tabiiy gaz aralashmasi yuborildi, pastki qismidan esa absorbent eritmasi berilib, qarama-qarshi oqimda yutish jarayoni amalga oshirildi. Haroratni nazorat qilish uchun termopara, bosimni o‘lchash uchun esa manometr o‘rnatildi.

Tajriba davomida chiqayotgan gaz tarkibi gaz xromatografi yordamida tahlil qilindi. Har bir tajriba kamida uch marta takrorlanib, o‘rtacha qiymatlar olingan [8].

ISSN 3030-3907

DEA va $Ca(OH)_2$ aralashmasi quyidagicha tayyorlandi: di-etanolaminning 10%, 20%, 30%, 40% va 50% li eritmalari tayyorlanib, ularga massaviy 5% miqdorda 0,1 M $Ca(OH)_2$ eritmasi qo‘shildi. Olingan eritmalar 60°C haroratda aralashtirildi va barqaror eritma hosil bo‘lishi ta’minlandi. Tayyorlangan gibrid eritma keyinchalik absorbsiya kolonnasiga yuborilib, tabiiy gaz namunalaridagi H_2S va CO_2 ni yutish uchun ishlatildi [9].

Tajriba jarayoni

Tajriba uch bosqichda olib borildi: (1) gaz tayyorlash, (2) absorbsiya jarayoni, va (3) gaz tarkibini tahlil qilish [10].

1. Gaz tayyorlash bosqichi: Laboratoriya kolonnasiga yuboriladigan tabiiy gaz aralashmasi maxsus ballonlardan o‘lchov tizimi orqali kiritildi. Gaz tarkibi oldindan belgilangan foizlarda H_2S va CO_2 bilan boyitildi.

2. Absorbsiya jarayoni: Har bir tajriba davomida absorbsiya kolonnasiga 10%, 20%, 30%, 40% va 50% li DEA eritmalari yuborildi. Ularga 0,1 M $Ca(OH)_2$ eritmasi 5% massaviy ulushda qo‘shilib, harorat 60°C da barqarorlashtirildi. Gaz va absorbent oqimi qarama-qarshi yo‘nalishda harakatlanib, reaksiya natijasida CO_2 va H_2S yutildi.

3. Gaz tarkibini tahlil qilish: Chiqqan gaz namunalarida CO_2 va H_2S miqdori gaz xromatografi yordamida aniqlandi. Tahlil natijalari uch marta o‘lchov natijalari asosida o‘rtachalashtirildi.


2-jadval.

Turli DEA konsentratsiyalarida gaz tozalash samaradorligi.

DEA konsentratsiyasi (%)	CO_2 tozalanish darajasi (%)	H_2S tozalanish darajasi (%)
10	78.4	81.2
20	86.7	90.3
30	97.8	99.0
40	97.6	99.1
50	97.4	99.0

Ko‘rinib turibdiki, DEA konsentratsiyasi 30% ga yetganda eng yuqori tozalash natijalari qayd etilgan. Konsentratsiya yanada oshirilganda natija deyarli o‘zgarmagan, bu esa 30% aralashma eng maqbul ekanini va natijalar shuni ko‘rsatdiki, 830 kscf/soat gaz oqim tezligi jarayon uchun optimal hisoblanadi. Bosim 2–2,7 bar oralig‘ida bo‘lganda H_2S va CO_2 ni yutish eng samarali kechadi.

ISSN 3030-3907



1-rasm. DEA konsentratsiyasining CO_2 va H_2S yutilish darajasiga ta’siri

Shuningdek, simulyatsiya jarayonida aniqlanishicha, gibrid absorbentning qo‘llanilishi natijasida gazni tozalash uchun zarur bo‘lgan bosim energiyasi 15–18% gacha kamayadi. Bu jarayonni sanoat miqyosida yanada tejamkor qilish imkonini beradi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, DEA–$Ca(OH)_2$ gibrid eritmasining konsentratsiyasi ortgan sari H_2S va CO_2 ni yutish samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Past konsentratsiyalarda yutilish jarayoni sust kechgan bo‘lsa, 30% li aralashmada gazlarni ajratish eng yuqori darajada amalga oshgan.

Ko‘rinib turibdiki, 30% aralashma eng maqbul qiymatni ta’minlaydi. Shu konsentratsiyada H_2S yutilish darajasi 99%, CO_2 yutilish darajasi esa 97,8% ni tashkil etgan. Konsentratsiya 40–50% gacha oshirilganda samaradorlik deyarli o‘zgarmagan, biroq energiya sarfi nisbatan ko‘paygan. Bu esa jarayonning optimal nuqtasi 30% oralig‘ida joylashganini anglatadi. Bunday holatda absorbsiya va regeneratsiya bosqichlari o‘rtasida energiya balansi eng qulay holatga keladi.

3-jadval.


DEA-$Ca(OH)_2$ aralashmasining konsentratsiyasi bo‘yicha tozalash samaradorligi

Aralashma konsentratsiyasi (%)	CO_2 yutilish darajasi (%)	H_2S yutilish darajasi (%)	Energiya sarfi (kJ/mol)
10	78.4	81.2	125
20	86.7	90.3	112
30	97.8	99.0	98
40	97.6	99.1	96
50	97.4	99.0	94

Haroratning ta’siri

ISSN 3030-3907

Haroratning absorbsiya samaradorligiga ta’siri ham o‘rganildi. 52–65°C oralig‘ida olib borilgan tajribalarda harorat oshgan sari yutilish samaradorligi pasaygani kuzatildi. Bu holat issiqlik ta’sirida amin va kislotali gazlar o‘rtasidagi reaksiyaning muvozanat holatiga tezroq yetishishi bilan izohlanadi.



2-rasm. 30% $Ca(OH)_2$-DEA gibrid eritmasining CO_2 va H_2S yutilish samaradorligiga ta’siri

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, optimal harorat 55–58°C oralig‘ida joylashgan. Aynan shu diapazonda H_2S va CO_2 yutilish reaksiyalari eng faol kechadi va aralashmaning kimyoviy barqarorligi saqlanib qoladi.

Bosimning ta’siri

Bosim o‘zgarishi ham jarayon samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Tajribalar 2–2,7 bar oralig‘ida o‘tkazildi. Natijalarga ko‘ra, bosim oshishi bilan gaz molekulalarining suyuqlik fazasida eruvchanligi ortadi, bu esa yutilish darajasining oshishiga olib keladi.

4-jadval.

Bosim o‘zgarishining tozalash samaradorligiga ta’siri.

Bosim (bar)	CO_2 yutilish darajasi (%)	H_2S yutilish darajasi (%)
2.0	94.2	97.5
2.3	96.5	98.4
2.5	97.6	98.9
2.7	97.8	99.0

Eng yuqori natijalar 2,5–2,7 bar bosim oralig‘ida qayd etilgan. Bu diapazonda H_2S deyarli to‘liq yutiladi, CO_2 esa 97% dan ortiq tozalanadi.

Gaz oqim tezligining ta’siri

Gaz oqim tezligi absorbsiya jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Oqim tezligi juda past bo‘lsa, gaz bilan suyuqlik orasidagi aloqa vaqti ortadi, biroq umumiy ishlab chiqarish unumdorligi kamayadi. Aksincha, tezlik ortganda aloqa vaqti

ISSN 3030-3907

qisqaradi va yutilish samaradorligi pasayadi. Tajribalarda gaz oqim tezligi 600 dan 1025 kscf/soat oralig‘ida o‘zgartirildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, 830 kscf/soat tezlikda absorbsiya jarayoni eng optimal natijani berdi.

5-jadval.

Gaz oqim tezligining tozalash samaradorligiga ta’siri.

Oqim tezligi (kscf/soat)	CO_2 yutilish darajasi (%)	H_2S yutilish darajasi (%)	Energiya sarfi (kJ/mol)
600	97.9	99.1	108
750	97.8	99.0	102
830	97.8	99.0	98
900	97.5	98.8	101
1025	97.3	98.7	106

Ko‘rinib turibdiki, 830 kscf/soat oqim tezligi jarayonni energiya sarfi nuqtayi nazaridan eng qulay holatga keltiradi. Shu sharoitda absorbentning gaz bilan aloqa vaqti yetarli bo‘lib, jarayon unumdorligi yuqori bo‘ladi.

Gibrid absorbentning afzalliklari

1. Yuqori samaradorlik: 30% DEA va 5% $Ca(OH)_2$ aralashmasi H_2S ni 99%, CO_2 ni 98% gacha yutadi.

2. Kam energiya sarfi: jarayonning umumiy energiya talabi 15–18% gacha kamaygan.

3. Ekologik xavfsizlik: chiqindilar toksik emas, $CaCO_3$ va CaS shaklida barqaror cho‘kma hosil bo‘ladi.

4. Korroziya xavfining kamayishi: kaltsiy gidroksid mavjudligi muhitni neytral saqlaydi, bu esa uskuna xizmat muddatini uzaytiradi.

5. Iqtisodiy tejamkorlik: absorbent tarkibi arzon va mahalliy xomashyolardan tayyorlanishi mumkin.

Kamchiliklari

Garchi natijalar yuqori samaradorlikni ko‘rsatsa ham, jarayonning ba’zi cheklovlari mavjud:

$Ca(OH)_2$ miqdori ortiqcha bo‘lganda cho‘kma hosil bo‘lishi kolonna ichida tiqilib qolish xavfini oshiradi;

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, di-etanolamin (DEA) va kaltsiy gidroksid ($Ca(OH)_2$) asosidagi gibrid absorbent tizimi tabiiy gazni H_2S va CO_2 dan samarali tozalashda yuqori natijalar beradi.

Tajriba va modellashtirish natijalariga ko‘ra quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

ISSN 3030-3907

1. Optimal aralashma tarkibi – 30% DEA va 5% $Ca(OH)_2$ bo‘lib, ushbu nisbatda H_2S 99%, CO_2 esa 97,8% gacha yutiladi.

2. Optimal bosim – 2,5–2,7 bar oralig‘ida aniqlanib, ushbu sharoitda jarayonning issiqlik va massa almashinuvi eng yuqori darajada kechadi.

3. Optimal harorat – 55–58°C diapazonida bo‘lib, bu issiqlik energiyasi sarfini kamaytiradi va absorbentning barqarorligini ta’minlaydi.

4. Gaz oqim tezligi – 830 kscf/soat qiymatida eng barqaror natijalar kuzatildi. Ushbu tezlikda bosim energiyasi 15–18% gacha tejab qolindi.

5. Gibrid absorbentning afzalliklari – iqtisodiy jihatdan arzon, ekologik xavfsiz, korroziyaga chidamli va regeneratsiya jarayoni soddalashgan.

Tadqiqot natijalari shuni isbotladiki, DEA–$Ca(OH)_2$ gibrid eritmasidan foydalanish tabiiy gazni tozalash texnologiyasining energiya tejamkorligini oshirish, jarayonni soddalashtirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash imkonini beradi. Ushbu yondashuvni sanoat miqyosida joriy etish gazni qayta ishlash sohasida samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Tuymurodovna S. G., Sherzod og‘li E. O. SANOAT GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDAN AJRATIB OLINADIGAN KISLOTALI GAZLAR VA ULARNI TOZALASHNI SAMARALI USULLARI //Modern education and development. – 2025. – Т. 27. – №. 3. – С. 254-259.

2. А.И. Скобло, Ю.К. Молоканова, А.И. Иладимиров, В.А. Щелкунов – роцессы и аппараты нефтегазо-переработки и нефтехмии.–М.: Нефдра. 2000 год.

3. Xabibullayevich M. M. Uskanbekov Ortig`ali. Sintetik Parafin Uglevodorodlaridan Sintetik Yoqilg ‘Ilar Olish Jarayoni //International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies (ITALY). – 2025. – Т. 10. – С. 11-14.

4. Halimov H. N., Karimov S. S., Obidov H. O. Gaz xomashyosini ishqoriy tozalashning hozirgi zamon usullari //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 612-619.

5. Xabibullayevich M. M. . Sho‘rtan Neft Gaz Zavodida Tabiiy Gazni Qayta Ishlashga Tayyorlash Jarayoni //International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies (ITALY). – 2025. – Т. 10. – С. 7-10.

6. Азимов О.Ғ., Агзамов Ш.К.-Табиий газни ва газоконденсатини қайта ишлаш машина ва жихозлари. Тошкент-2008 йил.

7. Bafoyev E. I., Tojiyev O. O. Neft va gazni tayyorlash asbob-uskunalari //Science and Education. – 2024. – Т. 5. – №. 8. – С. 50-59.

ISSN 3030-3907

8. Akramova Z. N. Q., Ochilov A. A. Gazlarni oltingugurt angidridi (SO2) dan absorbsion usulda tozalash //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 173-178.
9. Akramova Z. N., Axmedova O. B. Gazni tayyorlash jarayonida ishlatiladigan past haroratli separator //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 400-407.
10. Sanni S. E. et al. Optimization of natural gas treatment for the removal of CO2 and H2S in a novel alkaline-DEA hybrid scrubber //Egyptian Journal of Petroleum. – 2020. – T. 29. – №. 1. – C. 83-94.
11. Qayyum A., Ali U., Ramzan N. Acid gas removal techniques for syngas, natural gas, and biogas clean up–a review //Energy Sources, Part A: Recovery, Utilization, and Environmental Effects. – 2024. – T. 46. – №. 1. – C. 13136-13159.

ISSN 3030-3907

DIZEL YOQILG‘ISI UCHUN DEPRESSOR DISPERGIRLOVCHI QO‘NDIRMALAR ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQARISH

Yusupbaev Kanat Polatovich

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada dizel yoqilg‘isi samaradorligini oshirish va ishlash sifatini yaxshilash maqsadida depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalarni ishlab chiqarish texnologiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida qo‘ndirmalarning kimyoviy tarkibi, dispersiya xususiyatlari va ularning yoqilg‘iga ta’siri o‘rganilgan. Natijalar dizel yoqilg‘isida samarali ishlashga va yonish jarayonini optimallashtirishga yordam beradigan texnologik yondashuvlarni aniqlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar. Dizel yoqilg‘isi, depressor dispergiruvchi, qo‘ndirma, texnologiya, yonish jarayoni.

Annotation. This article analyzes the technology for producing depressor-dispersing additives to improve the efficiency and performance of diesel fuel. The chemical composition, dispersion characteristics, and their effects on fuel properties were studied. The results provide insights into technological approaches that enhance diesel fuel performance and optimize combustion processes.

Key words. Diesel fuel, depressor-dispersing additive, formulation, technology, combustion process.

Аннотация. В данной статье анализируется технология производства депрессорно-диспергирующих присадок для повышения эффективности и качества работы дизельного топлива. Исследованы химический состав, дисперсионные свойства и их влияние на свойства топлива. Результаты позволяют определить технологические подходы, способствующие эффективной работе дизельного топлива и оптимизации процесса сгорания.

Ключевые слова. Дизельное топливо, депрессорно-диспергирующая присадка, состав, технология, процесс сгорания.

Kirish.

Dizel yoqilg‘isining sifatini oshirish va uning ishlash samaradorligini ta’minlash zamonaviy yoqilg‘i kimyosi va transport energetikasi sohasida muhim masala hisoblanadi. Yoqilg‘i ishlash xususiyatlarini yaxshilash, yonish jarayonini optimallashtirish va karbonat qoldiqlarni kamaytirish maqsadida turli kimyoviy qo‘ndirmalar va qo‘shimchalar ishlatiladi. Shu nuqtai nazardan, depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalar dizel yoqilg‘isining quyuqligini kamaytirish, zarrachalar shakllanishining oldini olish va uning pompalanish xususiyatlarini yaxshilash orqali samaradorlikni oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

Tadqiqotlarda depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalarning kimyoviy tarkibi, dispersiya xususiyatlari va yoqilg‘iga qo‘shilganda uning ishlash samaradorligiga ta’siri o‘rganilgan bo‘lib, bu yondashuv yoqilg‘ini ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlarida texnologik innovatsiyalarni tatbiq etish imkonini beradi. Yoqilg‘i sifatini oshirishning mazkur texnologik yondashuvlari nafaqat transport vositalarining ishlash muddatini uzaytiradi, balki energiya samaradorligini oshirish, yonish jarayonida ifloslanishni kamaytirish va ekologik talablarni bajarishda ham ahamiyatlidir. Shu bilan birga, depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalarning optimal tarkibini ishlab chiqish va uni samarali qo‘llash, yoqilg‘i xususiyatlarini tizimli baholash orqali transport energetikasida yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy dizel yoqilg‘isi ishlab chiqarish texnologiyasida depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalardan foydalanish nafaqat texnologik jarayonlarni optimallashtirish, balki transport vositalarining ishlash sifatini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim strategik vosita hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, maqola dizel yoqilg‘isining sifatini oshirish va uning ishlash samaradorligini ta’minlash maqsadida depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalarni ishlab chiqarish texnologiyasini tizimli o‘rganishga qaratilgan.

Zamonaviy transport va energetika sohasida dizel yoqilg‘isi sifatini oshirish va uning ishlash samaradorligini maksimal darajada ta’minlash muhim ilmiy va amaliy masala hisoblanadi. Transport vositalarining motor ishlashi, yonish jarayonining samaradorligi va yoqilg‘ining ekologik xususiyatlari bevosita uning viskozligi va dispersiya xususiyatlariga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalar dizel yoqilg‘isining texnologik va ishlash xususiyatlarini yaxshilash, quyuqlikni kamaytirish va zarrachalar hosil bo‘lishini oldini olish orqali transport vositalarining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlarda depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalarning kimyoviy tarkibi, konsentratsiyasi, dispersiya xususiyatlari va qo‘shilish shart-sharoitlari yoqilg‘i ishlashiga bevosita ta’sir qilishi aniqlangan. Shu bilan birga, optimal texnologik parametrlarni aniqlash orqali qo‘ndirmalarning maksimal samaradorligini ta’minlash mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan. Maqola mazmunan dizel yoqilg‘isi ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonida depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalarni qo‘llash texnologiyasini tizimli o‘rganishga, uning samaradorligini laboratoriya va eksperimental tadqiqotlar asosida baholashga qaratilgan. Tadqiqotning qo‘shimcha ahamiyati shundaki, u nafaqat yoqilg‘i sifatini oshirish va motor ishlashini yaxshilashga, balki transport vositalarining energiya samaradorligini oshirish, yonish jarayonidagi ifloslanishni kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, maqola dizel yoqilg‘isi uchun depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalarni ishlab chiqarish

ISSN 3030-3907

texnologiyasini ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan samarali tarzda o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, transport energetikasi va yoqilg‘i kimyosi sohasida innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy dizel yoqilg‘isi sifatini oshirish va uning ishlash samaradorligini ta’minlash masalasi so‘nggi yillarda olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalar yoqilg‘ining quyuqligini kamaytirish, zarrachalar hosil bo‘lishining oldini olish va pompalanish xususiyatlarini yaxshilash orqali uning ishlash sifatini sezilarli darajada oshiradi [1]. Ba’zi tadqiqotlarda qo‘ndirmalarning kimyoviy tarkibi va dispersiya xususiyatlari yoqilg‘i samaradorligiga bevosita ta’sir qilishi, shuningdek yonish jarayonida ifloslanishni kamaytirishi ko‘rsatib o‘tilgan [2]. Shu bilan birga, boshqa manbalarda depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalarning transport vositalarining motor samaradorligi va energiya sarfini kamaytirishga ijobiy ta’siri ta’kidlangan [3]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qo‘ndirmalarning optimal tarkibi va ularni samarali qo‘llash yoqilg‘i xususiyatlarini tizimli baholash orqali transport energetikasida yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi [4]. Ba’zi manbalarda esa, depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalarning ishlab chiqarish texnologiyasi va ularning qo‘shilish shart-sharoitlari yoqilg‘ining sifatini oshirishda strategik ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatilgan [5]. Shu bilan birga, qo‘ndirmalarning yoqilg‘iga ta’sirini baholashda laboratoriya sinovlari va statistik tahlil metodlarining qo‘llanilishi natijalarni aniq va ishonchli qiladi, bu esa texnologik jarayonlarni optimallashtirishda muhim vosita hisoblanadi [6]. Tadqiqotlarda shuningdek, depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalardan foydalanish nafaqat motor ishlashini yaxshilash, balki ekologik talablarni bajarish va yonish jarayonida zararli chiqindilarni kamaytirish imkonini berishi ta’kidlangan [7]. Shu nuqtai nazardan, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, dizel yoqilg‘isi uchun depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalarni ishlab chiqarish texnologiyasi nafaqat texnologik jarayonlarni optimallashtirish, balki transport vositalarining ishlash samaradorligini oshirish, energiya samaradorligini ta’minlash va ekologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim strategik ahamiyatga ega.

Materiallar va usullar. Ushbu tadqiqotda dizel yoqilg‘isining samaradorligini oshirish maqsadida depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalarni ishlab chiqarish texnologiyasi o‘rganildi. Tadqiqot obyekti sifatida turli kimyoviy tarkibli qo‘ndirmalar tanlanib, ularning dizel yoqilg‘isiga ta’siri laboratoriya sharoitida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida qo‘ndirmalarning kimyoviy tarkibi, dispersiya xususiyatlari, erish tezligi va yoqilg‘iga qo‘shilganda viskozlikni kamaytirish qobiliyati aniqlangan. Eksperimental ishlarda dispersiya testlari, viskozometrik o‘lchovlar va yoqilg‘ining pompalanish xususiyatini baholash metodlari qo‘llanilgan. Tadqiqotda kvantitativ va sifatli tahlil metodlari birgalikda ishlatilgan

ISSN 3030-3907

bo‘lib, natijalar statistik vositalar yordamida tahlil qilingan va grafiklar hamda jadvallar orqali vizual tarzda taqdim etilgan. Shu bilan birga, qo‘ndirmalarning optimal konsentratsiyasi va qo‘shilish shart-sharoitlari aniqlanib, ularning samarali ishlashini ta’minlash uchun texnologik parametrlar ishlab chiqilgan. Tadqiqot jarayonida qo‘ndirmalarning yoqilg‘iga qo‘shilish usullari, harorat va aralashtirish tezligi kabi parametrlar sinovdan o‘tkazilgan, bu esa qo‘ndirmalarning dispersiya va depressor xususiyatlarini maksimal darajada oshirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalarning ishlab chiqarish va qo‘llash texnologiyasi yoqilg‘i xususiyatlarini tizimli ravishda yaxshilash, yonish jarayonini optimallashtirish va transport vositalarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, materiallar va usullar bo‘limida qo‘llangan metodologiya va laboratoriya tahlillari maqola mavzusining ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

1-jadval.

Qo‘ndirmalarning konsentratsiyasi va viskozlikka ta’siri

Qo‘ndirma konsentratsiyasi (%)	Dizel yoqilg‘isi viskozligi (cP)	Viskozlikdagi o‘zgarish (%)
0.0 (nazorat)	4.8	0
0.1	4.5	6.25
0.3	4.1	14.58
0.5	3.8	20.83
0.7	3.6	25.00

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, qo‘ndirma konsentratsiyasi ortishi bilan dizel yoqilg‘isi viskozligi sezilarli darajada kamayadi, bu uning pompalanish va yonish xususiyatlarini yaxshilashga yordam beradi. Tadqiqot natijalari 1- va 2-jadvallar orqali batafsil tahlil qilinadi. 1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalarning konsentratsiyasi ortishi bilan dizel yoqilg‘isining viskozligi sezilarli darajada kamayadi. Masalan, nazorat namunada viskozlik 4,8 cP bo‘lsa, qo‘ndirma konsentratsiyasi 0,7% ga yetganda viskozlik 3,6 cP ga tushadi, ya’ni 25% ga kamayadi. Bu o‘zgarish dizel yoqilg‘isining pompalanish xususiyatlarini yaxshilashga va yonish jarayonini optimallashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, qo‘ndirma konsentratsiyasining optimal darajasi aniqlanib, undan oshiqcha qo‘shish texnologik samaradorlikni oshirmasligi va yoqilg‘i sifatini kamaytirishi mumkinligi ta’kidlanadi.

ISSN 3030-3907

2-jadval.

Qo‘ndirmalarning yonish jarayoniga ta’siri

Qo‘ndirma turi	Yonish samaradorligi (%)	Zarrachalar hosil bo‘lishi (mg/m³)
Nazorat (qo‘ndirmasiz)	92	18
Depressor-dispergiruvchi A	95	12
Depressor-dispergiruvchi B	96	10
Depressor-dispergiruvchi C	97	8

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalarning qo‘shilishi yonish samaradorligini oshiradi va zarrachalar hosil bo‘lishini kamaytiradi, bu esa ekologik jihatdan ham foydali natijalarni beradi. 2-jadval natijalari esa depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalarning yonish jarayoniga ta’sirini ko‘rsatadi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, qo‘ndirmalarning turli turlari yonish samaradorligini oshiradi va zarrachalar hosil bo‘lishini kamaytiradi. Masalan, nazorat namunada yonish samaradorligi 92% bo‘lsa, depressor-dispergiruvchi C qo‘ndirmasi qo‘shilganda samaradorlik 97% ga oshadi va zarrachalar hosil bo‘lishi 18 mg/m³ dan 8 mg/m³ gacha kamayadi. Bu esa nafaqat yoqilg‘i ishlash sifatini yaxshilash, balki ekologik jihatdan ham foydali natijalarni ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan, jadvallar natijalari depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalarning dizel yoqilg‘isining viskozligini kamaytirish, yonish samaradorligini oshirish va zarrachalar hosil bo‘lishini kamaytirishdagi samaradorligini aniq tasdiqlaydi, bu esa ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni optimallashtirishda muhim ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot muhokamasi. Eksperimental tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalarning dizel yoqilg‘isiga qo‘shilishi uning viskozligini samarali ravishda kamaytiradi va pompalanish xususiyatlarini yaxshilaydi. Tadqiqot davomida turli kimyoviy tarkibli qo‘ndirmalar sinovdan o‘tkazilib, ularning dispersiya xususiyatlari va yoqilg‘iga ta’siri aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, optimal konsentratsiyadagi qo‘ndirmalar yoqilg‘ining quyuqligini sezilarli darajada kamaytirib, yonish jarayonini tezlashtiradi va zarrachalar hosil bo‘lishining oldini oladi. Shu bilan birga, laboratoriya tahlillari qo‘ndirmalarning samaradorligini va ularning yoqilg‘i xususiyatlariga ta’sirini aniq ko‘rsatdi, bu esa ishlab chiqarish jarayonida texnologik parametrlarni optimallashtirish imkonini beradi. Tadqiqot muhokamasida aniqlanishicha, qo‘ndirmalarning dispersiya va depressor xususiyatlari dizel yoqilg‘isining energiya samaradorligini oshirish, yonish jarayonidagi ifloslanishni kamaytirish va

ISSN 3030-3907

transport vositalarining ishlash muddatini uzaytirish kabi ijobiy natijalarni beradi. Shu bilan birga, qo‘ndirmalarning qo‘shilish usuli, harorat rejimi va aralashtirish tezligi kabi parametrlar ularning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, bu esa texnologik jarayonni optimallashtirish va sifatni nazorat qilish imkonini yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalar nafaqat yoqilg‘i xususiyatlarini yaxshilash, balki transport energetikasida ekologik xavfsizlikni ta’minlash va yonish jarayonidagi zararli chiqindilarni kamaytirishda ham samarali vosita hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, eksperimental natijalar ko‘rsatadiki, dizel yoqilg‘isi uchun depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalarni ishlab chiqarish va qo‘llash texnologiyasi yoqilg‘ining sifatini tizimli ravishda oshirish, energiya samaradorligini yaxshilash va transport vositalarining ishlash samaradorligini maksimal darajada ta’minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot muhokamasida shuningdek, indikatorlar asosida natijalarni tahlil qilish qo‘ndirmalarning samaradorligini aniq baholash va texnologik jarayonlarni takomillashtirish imkonini beradi, bu esa dizel yoqilg‘isini ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonida innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish uchun asos yaratadi.

Bundan tashqari, tadqiqot muhokamasida depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalarning turli yoqilg‘i formulalari bilan o‘zaro ta’siri ham o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, qo‘ndirmalarning kimyoviy tarkibi va dispersiya xususiyatlari yoqilg‘i ishlashiga sezilarli darajada ta’sir qiladi; ayniqsa, qo‘ndirmaning molekulyar strukturasidagi polimer komponentlar yoqilg‘ining quyuqligini kamaytirishda asosiy rol o‘ynaydi. Eksperimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, qo‘ndirmalarning optimal konsentratsiyasi aniqlanganda, motor ishlash samaradorligi oshadi va yonish jarayonida ifloslanish darajasi kamayadi. Shu bilan birga, qo‘ndirmalarning haroratga chidamliligi va uzoq muddatli saqlash xususiyatlari yoqilg‘i ishlab chiqarish jarayonida ularning samaradorligini belgilovchi muhim parametrlar ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, qo‘ndirmalarning dispersiya va depressor xususiyatlari transport vositalarining energiya samaradorligini oshirish, yoqilg‘i sarfini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga yordam beradi. Shuningdek, qo‘ndirmalarning qo‘shilish usuli, aralashtirish tezligi va harorat rejimi kabi parametrlarni aniqlash, laboratoriya va eksperimental sinovlar asosida optimallashtirilgan holda tatbiq etilishi texnologik jarayonning samaradorligini oshiradi. Tadqiqot muhokamasi shuni ko‘rsatadiki, depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalarni qo‘llash nafaqat yoqilg‘i sifatini yaxshilash, balki ishlab chiqarish jarayonida texnologik innovatsiyalarni tatbiq etish, transport energetikasida yuqori samaradorlikni ta’minlash va ekologik talablarni bajarish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, qo‘shimcha tadqiqotlar natijalari dizel yoqilg‘isi uchun depressor dispergiruvchi

ISSN 3030-3907

qo‘ndirmalarni ishlab chiqarish va qo‘llash texnologiyasini yanada samarali va tizimli ravishda rivojlantirishga asos yaratadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, dizel yoqilg‘isi uchun depressor dispergiruvchi qo‘ndirmalarni ishlab chiqarish texnologiyasini tatbiq etish yoqilg‘ining viskozligini kamaytirish, uning pompalanish xususiyatlarini yaxshilash va yonish jarayonini optimallashtirishda samarali vosita hisoblanadi. Eksperimental ishlarda aniqlanishicha, qo‘ndirmalarning kimyoviy tarkibi va dispersiya xususiyatlari dizel yoqilg‘isining energiya samaradorligini oshirish, motor ishlashini yaxshilash va yonish jarayonida ifloslanishni kamaytirishga bevosita ta’sir qiladi. Shu bilan birga, qo‘ndirmalarning optimal konsentratsiyasi va ularni qo‘shish shart-sharoitlarini aniqlash texnologik jarayonni optimallashtirish va sifatni nazorat qilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ivanov, A. (2020). Technology of diesel fuel additives: depressor-dispersing agents. Fuel Chemistry Journal, 5(2), 45-53.
2. Petrov, B. & Sidorova, N. (2019). Influence of dispersing additives on diesel fuel properties. Journal of Energy and Fuels, 8(1), 12-20.
3. Karimov, M. (2021). Optimization of depressor-dispersing formulations for diesel fuels. Chemical Engineering Research, 6(3), 34-42.
4. Abdullayeva, L. & Tursunov, S. (2018). Diesel fuel performance improvement using additives. Industrial Chemistry, 4(4), 67-75.
5. Smith, J. (2017). Combustion efficiency and dispersing agents in diesel fuels. International Journal of Fuel Technology, 9(2), 22-30.
6. Rasulov, F. (2022). Laboratory methods for testing diesel fuel additives. Fuel and Energy, 3(1), 50-58.
7. Yusupov, D. (2019). Environmental impact of depressor-dispersing additives in diesel fuels. Journal of Environmental Chemistry, 7(3), 15-24.

ISSN 3030-3907

PO‘LAT QUYISH JARAYONLARINI INTELLEKTUAL BOSHQARISH TIZIMI ALGORITMLARI

Hakimova Gulmira Azim qizi

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktoranti.

E-mail: gulmira.hakimova.17.12@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada po‘lat quyish jarayonlarini avtomatlashtirishda sun’iy intellekt algoritmlarini qo‘llashning ilmiy asoslari tahlil qilinadi. Po‘lat quyish jarayoni issiqlik uzatish, metall oqimi, harorat va sath parametrlarining o‘zaro bog‘liqligi sababli murakkab, noaniq va kechikishlarga sezgir tizim hisoblanadi. Shu sababli an’anaviy PID boshqaruv tizimlari bunday jarayonlarda optimal natija bermaydi [11]. Mazkur tadqiqotda fuzzy-neural va model-predictive control (MPC) yondashuvlari asosida intellektual boshqaruv algoritmlari ishlab chiqilgan [1], [2], [5]. Natijalar po‘lat quyish jarayonining barqarorligini oshirish, energiya sarfini kamaytirish va metall sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: po‘lat quyish, avtomatlashtirish, intellektual boshqaruv, fuzzy-neural tizim, model-predictive control, issiqlik jarayoni, optimallashtirish.

Abstract. This article analyzes the scientific foundations of applying artificial intelligence algorithms in the automation of steel casting processes. Due to the interdependence of heat transfer, molten metal flow, temperature, and level parameters, the steel casting process is considered a complex, uncertain, and delay-sensitive system. Therefore, conventional PID-based control systems do not provide optimal performance under such conditions [11]. In this study, intelligent control algorithms based on fuzzy-neural and model-predictive control (MPC) approaches were developed [1], [2], [5]. The results demonstrate that the proposed methods improve the stability of the steel casting process, reduce energy consumption, and enhance metal quality.

Keywords: steel casting, automation, intelligent control, fuzzy-neural system, model-predictive control, thermal process, optimization.

Аннотация. В статье анализируются научные основы применения алгоритмов искусственного интеллекта в автоматизации процессов разливки стали. Из-за взаимосвязанности теплообмена, потока расплавленного металла, параметров температуры и уровня процесс разливки стали относится к сложным, неопределённым и чувствительным к запаздываниям системам. Поэтому традиционные системы управления на основе PID-регуляторов не обеспечивают оптимального результата в таких условиях [11]. В данном исследовании разработаны интеллектуальные алгоритмы управления на основе подходов fuzzy-neural и model-predictive control (MPC) [1], [2], [5]. Полученные результаты показывают, что предложенные методы

ISSN 3030-3907

повышают устойчивость процесса разливки стали, снижают энергопотребление и улучшают качество металла.

Ключевые слова: разливка стали, автоматизация, интеллектуальное управление, fuzzy-neural система, model-predictive control, тепловой процесс, оптимизация.

1. Kirish

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida metallurgiya sanoati ishlab chiqarishning strategik tarmoqlaridan biriga aylandi. **World Steel Association (WSA)** ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda global po‘lat ishlab chiqarish hajmi **1,89 mlrd tonna**ni tashkil etgan bo‘lib, bu 2019-yilga nisbatan **4,3 % o‘sishni** anglatadi [14]. Eng yirik ishlab chiqaruvchilar — Xitoy (52 %), Hindiston (8 %), Yaponiya (5 %) va Rossiya (4 %) hisoblanadi.

O‘zbekiston metallurgiya sohasi ham so‘nggi besh yilda sezilarli rivojlanish bosqichini bosib o‘tdi. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2019–2024-yillar oralig‘ida po‘lat ishlab chiqarish hajmi **1,08 mln tonnadan 1,52 mln tonnagacha** oshgan [15]. Bu ko‘rsatkich o‘rtacha **7,5 % yillik o‘sish** sur’atini aks ettiradi.

Bu o‘sish jarayoni metallurgiya ishlab chiqarishida raqamlashtirish, avtomatlashtirish va intellektual boshqaruv tizimlariga bo‘lgan talabni oshirdi [18], [19]. Po‘lat quyish jarayoni metall ishlab chiqarishning eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, unda metallning fizik holati, issiqlik rejimi va kristallanish jarayoni bir vaqtda kechadi [4].

An’anaviy PID boshqaruv tizimlari ko‘p parametrli, kechikishlarga sezgir bo‘lgan bunday jarayonlarda yetarli aniqlikni ta’minlamaydi [13]. Shu sababli, sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan yondashuvlar — fuzzy-neural tizimlar [1], MPC [2], hamda digital twin texnologiyalari [3] so‘nggi yillarda jadal rivojlanmoqda.

2023-yilda “Nippon Steel” kompaniyasining Smart Casting System platformasi real vaqt harorat nazoratini ±0,8 °C aniqlikkacha ta’minlagan [17]. Xitoyning “Baowu Group” kompaniyasi esa sun’iy intellektga asoslangan Surface Quality Control System orqali ishlab chiqarishdagi nuqsonlarni 6,2 % ga kamaytirishga erishgan [16].

O‘zbekiston metallurgiya korxonalari (Bekobod metallurgiya kombinati, O‘zmetkombinat, UzMetallurg) ham avtomatlashtirilgan raqamli boshqaruv tizimlarini joriy qilish bo‘yicha faol ishlamoqda [18], [19]. Ammo mavjud tizimlarning ko‘pchiligi hali to‘liq intellektual darajaga ega emas.

Shuning uchun ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — po‘lat quyish jarayonlarini intellektual boshqarish algoritmlari yordamida optimallashtirishdan iborat.

ISSN 3030-3907

2. Adabiyotlar tahlili (Literature Review)

Po‘lat quyish jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar izchil rivojlanmoqda. Zhang va Wang fuzzy-logic asosidagi sath boshqaruv algoritmi yordamida sath tebranishlarini 12 % gacha kamaytirishga erishgan [1]. Kim va Lee MPC yordamida po‘lat quyish jarayonidagi kechikishlarni kompensatsiya qilish bo‘yicha samarali model taklif qilgan [2]. Liu esa Digital Twin asosidagi Smart Casting Framework ishlab chiqib, jarayonni to‘liq virtual monitoring qilish imkonini bergan [3].

Petrov kristallizator devorlaridagi issiqlik oqimini quyidagi tenglama bilan ifodalagan:

$$q = -k\frac{\partial T}{\partial n}$$

bu model issiqlik almashinish jarayonining aniqlik darajasini oshirgan [4].

Zhou va Chen inertsiya kechikishlarini kamaytirishga mo‘ljallangan adaptive MPC algoritmini ishlab chiqishgan [5]. Ito tomonidan ishlab chiqilgan ANFIS modeli metall haroratini yuqori aniqlikda boshqarishni ta’minlagan [6].

AI, IoT va CPS texnologiyalari asosida jarayonni masofadan monitoring qilish va tahlil qilish imkoniyatlari ham kengaymoqda [7], [8]. Machine learning asosidagi nuqsonlarni prognozlash modellari so‘nggi yillarda katta samaradorlik ko‘rsatmoqda [9], [10].

O‘zbekiston va MDH mamlakatlarida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar ko‘proq klassik boshqaruv tizimlariga asoslangan [11], [12], [13].

Xorijiy tajribalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki:

- ❖ Fuzzy-neural tizimlar yuqori aniqlikdagi lokal boshqaruv imkonini beradi, biroq ularning konvergentsiya tezligi past;
- ❖ MPC algoritmlari global optimallashtirishni ta’minlaydi, lekin hisoblash murakkabligi yuqori;
- ❖ Digital Twin texnologiyalari virtual monitoring imkonini beradi, ammo katta hisoblash resurslarini talab qiladi;
- ❖ AI va IoT integratsiyasi esa real vaqt tahlilini soddalashtiradi, lekin kiberxavfsizlik muammolarini keltirib chiqaradi.

Shu sababli, tadqiqotda ushbu yondashuvlarni birlashtirgan intellektual gibrid boshqaruv tizimi taklif qilinadi. Xulosa qilib, ilmiy adabiyotlar fuzzy-neural, MPC va AI yondashuvlari po‘lat quyish jarayonini optimallashtirishda eng samarali usullar ekanini ko‘rsatmoqda.

3. Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Po‘lat quyish jarayonining intellektual boshqaruv tizimi issiqlik, oqim va kristallanish jarayonlarining murakkab o‘zaro ta’sirini hisobga oladi. Issiqlik almashinuvi quyidagi tenglama orqali ifodalanadi [4]:

ISSN 3030-3907

$$\rho c_p \frac{\partial T}{\partial t} = \nabla \cdot (k \nabla T) + Q$$

Oqim dinamikasi esa Navye–Stokes tenglamasi bilan ifodalanadi:

$$\rho\left(\frac{\partial v}{\partial t} + v \cdot \nabla v\right) = -\nabla p + \mu \nabla^2 v + \rho g$$

Kristallanish zonasidagi energiya balansi esa:

$$\frac{\partial T}{\partial t} = \frac{1}{\rho c_p}\left(q_{in} - q_{out} - L\frac{dm}{dt}\right)$$

Model Finite Difference Method asosida yechilib, Matlab/Simulink muhitida sinovdan o‘tkazildi. Jarayonning murakkabligi sababli fuzzy-neural va MPC asosida gibrid boshqaruv algoritmi ishlab chiqildi [1]:

$$y(t) = \sum_{i=1}^{n} \mu_i(x) \cdot (\omega_i^T x + b_i)$$

va MPC maqsad funksiyasi [2]:

$$J = \sum_{k=1}^{N_p} \left\| y_{ref}(k) - y(k) \right\|^2 + \lambda \sum_{k=1}^{N_c} \left\| \Delta u(k) \right\|^2$$

Simulyatsiya parametrlarida metall zichligi $\rho = 7100$ kg/m^3, issiqlik sig‘imi $c_p = 480$ J/kg*K, oqim tezligi v=1.5 m/s, prognoz gorizonti N_p=10, boshqaruv gorizonti N_c=3, og‘irlik koeffitsienti λ=0.5 deb olindi.

4. Natijalar va muhokama (Results and Discussion)

Simulyatsiya natijalari fuzzy-neural model metall sathi tebranishini 51 % ga kamaytirganini [1], MPC esa kechikish vaqtini 58 % ga qisqartirganini [2] ko‘rsatdi. Gibrid tizim esa bu natijalarni birlashtirib, sath tebranishini ±1.0 mm, energiya sarfini 12.2 % gacha kamaytirdi.

Boshqaruv turi	Sath tebranishi (mm)	Kechikish (s)	Energiyani tejash (%)
PID	±3.5	1.2	0
Fuzzy-Neural	±1.7	0.8	6.5
MPC	±1.2	0.5	10.5
Fuzzy-Neural + MPC	±1.0	0.45	12.2

Tahlil natijalariga ko‘ra, ishlab chiqilgan tizim issiqlik tebranishlarini barqarorlashtirish, oqim tezligini optimallashtirish va energiya sarfini kamaytirishda yuqori natija ko‘rsatdi. Grafik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, harorat 1570 °C atrofida barqarorlashgan, bu esa kristallizatsiya jarayonining optimal sharoitini ta’minlagan [4].

5. Xulosa (Conclusion)

ISSN 3030-3907

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, fuzzy-neural va MPC algoritmlari asosida ishlab chiqilgan gibrid boshqaruv tizimi po‘lat quyish jarayonining barqarorligi va energiya samaradorligini oshirdi. Tizim real vaqt rejimida o‘zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladi, noaniqliklarni aniqlaydi va optimal boshqaruv qarorlarini shakllantiradi.

Energiya sarfi 12 % ga kamaygan, po‘lat sifat ko‘rsatkichi 10 % ga yaxshilangan, bu esa sanoat samaradorligini sezilarli oshiradi. Tizim IoT sensor tarmoqlari va Digital Twin platformalari bilan integratsiya qilinishi mumkin [3], [7], [8]. Bu esa O‘zbekiston metallurgiya korxonalarida raqamli avtomatlashtirishni yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Ushbu natijalar “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsadlarga mos bo‘lib, metallurgiya sohasida ilg‘or raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun ilmiy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zhang, L., Wang, Y. Intelligent fuzzy logic control for continuous steel casting process // Journal of Process Control. – 2023. – T. 118. – B. 35–48.
2. Kim, D., Lee, S. Model-predictive optimization in molten steel level control // IEEE Transactions on Industrial Electronics. – 2022. – T. 69, №4. – B. 4801–4812.
3. Liu, X. Digital twin-based smart casting framework for process optimization // Procedia Manufacturing. – 2021. – T. 54. – B. 110–119.
4. Petrov, A.N. Mathematical modeling of heat transfer in continuous casting mold // Metallurg. – Moskva: Metallurgizdat, 2019. – B. 67–73.
5. Zhou, J., Chen, Q. Adaptive MPC approach for delay compensation in steel casting // Control Engineering Practice. – 2020. – T. 95. – B. 104236.
6. Ito, K. Adaptive neuro-fuzzy inference systems for molten steel temperature control // Springer Series in Intelligent Manufacturing. – Berlin: Springer, 2024. – B. 145–162.
7. Morales, R. Intelligent automation in cyber-physical metallurgical systems // Elsevier Advances in Automation. – 2021. – T. 12. – B. 201–213.
8. Fang, J. IoT-enabled monitoring for smart foundry systems // IEEE Access. – 2022. – T. 10. – B. 95173–95189.
9. Singh, R. Machine learning-based prediction for continuous casting defects // Materials Today: Proceedings. – 2023. – T. 65. – B. 394–403.
10. Chakraborty, S. Neural network prediction of molten steel flow dynamics // Metals. – 2020. – T. 10, №9. – B. 1221–1230.
11. Abdurahmonov, M.M. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari nazariyasi. – Toshkent: TDTU nashriyoti, 2022. – 256 b.
12. Ahmedov, B. Sun’iy intellekt asosida texnologik jarayonlarni boshqarish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. – 198 b.

ISSN 3030-3907

13. Rakhimov, S., Karimova, D. PID va adaptiv boshqaruv tizimlarining solishtirma tahlili // O‘zbekiston muhandislik jurnali. – 2020. – №2. – B. 45–53.
14. World Steel Association. World Steel in Figures 2024. – Brussels: WSA Publications, 2024. – 72 p.
15. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Sanoat ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari 2019–2024. – Toshkent: 2024.
16. Baowu Group. Annual Report on AI-based Casting Automation. – Shanghai: 2023. – 58 p.
17. Nippon Steel Corporation. Smart Casting System Implementation Report. – Tokyo: 2023. – 61 p.
18. Bekobod Metallurgiya Kombinati. Ishlab chiqarish avtomatlashtirish bo‘yicha texnik hisobot. – Bekobod: 2022. – 47 b.
19. UzMetallurg kompaniyasi. Raqamli texnologiyalar joriy etilishi natijalari. – Toshkent: 2023. – 33 b.
20. European Metallurgical Federation. Advances in Intelligent Metallurgical Systems. – Brussels: EMF, 2021. – 105 p.

ISSN 3030-3907

ZAMONAVIY METALL KESISH DASTGOHLARINING AVTOMATIK BOSHQARISH SISTEMASIDAGI KAMCHILIK VA MUAMMOLARINING TAHLILI

Yusupbekov Nodirbek Rustambekovich
O‘z. FA akademigi, TDTU
Ruziyev Umidjon Abdimajitovich
TDTU T.f.d. (DsC),
Abdullayeva Dilnavoz Xusniddinovna
BDTU assistent

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda zamonaviy metall kesish dastgohlarining texnik va funksional kamchiliklari tahlil qilingan. Ayniqsa, raqamli dasturda boshqariladigan dastgohlar (RDB) elektroavtomatika tizimlarining murakkabligi, mexanik komponentlarning yeyilishi, sensor va aktuator xatoliklari, shuningdek, termik deformatsiyalar keltirib chiqarayotgan muammolar yoritilgan. Tadqiqotda mavjud muammolarning yuzaga kelish sabablari, diagnostika usullarining cheklovlari va sun’iy intellekt asosida xatoliklarni aniqlash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Eksperimental o‘lchovlar asosida aniqlik pasayishi, vibratsiya va pozitsiyalanish xatolari grafik va jadval ko‘rinishida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Metall kesish dastgohlar, raqamli boshqaruv tizimi, servo tizim, pozitsiyalanish xatoligi, titrash, termik deformatsiya, sun’iy intellekt, diagnostika, texnik xizmat, xatolik tahlili.

Abstract: In this study, the technical and functional limitations of modern metal-cutting machine tools were analyzed. In particular, issues arising from the complexity of the electro-automation systems of Computer Numerical Control (CNC) machines, the wear of mechanical components, sensor and actuator errors, as well as thermal deformations were highlighted. The study examined the root causes of these problems, the limitations of existing diagnostic methods, and the potential of artificial intelligence–based fault detection. Based on experimental measurements, the degradation of accuracy, vibration levels, and positioning errors were analyzed through graphical and tabulated representations.

Keywords. Metal-cutting machines, numerical control system, servo system, positioning error, vibration, thermal deformation, artificial intelligence, diagnostics, maintenance, fault analysis.

Аннотация: В данном исследовании проанализированы технические и функциональные недостатки современных металлорежущих станков. Особое внимание уделено сложности электроавтоматики станков с числовым программным управлением (ЧПУ), износу механических компонентов, ошибкам датчиков и исполнительных механизмов, а также проблемам, вызываемым тепловыми деформациями. В исследовании рассмотрены

ISSN 3030-3907

Aralash ligandli komplekslar, ya’ni oksalat va atsetat ionlarini birgalikda o‘z ichiga olgan Cu(II) komplekslari haqidagi ma’lumotlar adabiyotda nisbatan kam uchraydi. Bu turdagi komplekslarning sintezi orqali yangi koordinatsion muhitlar va strukturaviy motivlar aniqlanishi mumkin. Cu(II) aralash ligandli komplekslarida oksalat ionining ko‘priksimon koordinatsiyasi va atsetat ionining monodentat roli kuzatilgan. Ularning IQ spektrlarida ikkala ligandning o‘ziga xos vibratsion chiziqlari aniqlanib, koordinatsiya shakli tahlil qilingan [7-8].

Ko‘pgina tadqiqotlarda bu turdagi komplekslarning termik xossalari – ya’ni harorat ta’sirida qanday bosqichlarda va qanday mahsulotlarga parchalanishi TG/DTA analiz usullari yordamida o‘rganilgan. Jumladan, oksalatli komplekslarning 150–300°C oralig‘ida CO_2 va boshqa gazsimon mahsulotlar ajralishi bilan parchalanishini kuzatganlar. [9] Shuningdek, Cu(II)-oksalat-atsetat komplekslarining issiqlikka chidamli, barqaror tuzilmalar hosil qilishi va ularning parchalanish mahsulotlarida mis(II) oksidi (CuO) hosil bo‘lishi aniqlangan [10-11]. Shunday qilib, Cu(II) oksalat–atsetat komplekslari kimyoviy strukturasi va fizik-kimyoviy xossalari bilan o‘ziga xos bo‘lib, ularning sintezi va spektroskopik tahlili zamonaviy koordinatsion kimyoning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu turdagi birikmalarni chuqur o‘rganish yangi funksional materiallarni yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Cu(II) oksalatining Ca atsetati bilan kompleks birikmasi sintezi quyidagi usul bo‘yicha amalga oshirildi: 0,01 mol Cu (II) atsetat suvdagi eritmasi va 0,02 mol Ca atsetatning 1:1 nisbatdagi suv:asetonitril aralashmasida eritilgan eritmalari aralashtirilib, issiq suv hammomida (60-65 ^{0}C haroratda) qizdirildi. So‘ngra aralashma hajmi 1,5 marta kamayguncha 4 soat davomida bug‘latildi. Hosil bo‘lgan eritma 3 kunga qoldirildi. Hosil bo‘lgan kukunsimon modda 4 ml distillangan suv va 2 ml spirt aralashmasida eritildi hamda qayta kristallash uchun 72 soatga qoldirildi.

$$Cu(COO)_2 + 2Ca(CH_3COO)_2 \rightarrow Ca_2[Cu(COO)_2(CH_3COO)_4]$$

Cu (II) oksalatning Pb (II) atsetati bilan kompleks birikmasi sintezi: 0,02 mol Pb (II) asetati muz sirka kislotada 0,01 mol Cu (II) oksalati eritmasi bilan aralashtirildi. Olingan aralashma teskari sovutgich o‘rnatilgan tubi dumaloq kolbaga solinib, suv hammomida 1.5 soat davomida qaynatildi. Eritma filtrlanib, rotorli bug‘latgichda quruq qoldiq olinguncha bug‘latildi. Olingan qoldiq 20 ml asetonitril va 10 ml sovuq suv aralashmasida eritilib, 10 ml ga bug‘latildi va 72 soatga qoldirildi.

$$Cu(COO)_2 + 2Pb(CH_3COO)_2 \rightarrow [Cu(COO)_2Pb_2(CH_3COO)_4]$$

Cu(II) oksalatining Zn atsetati bilan kompleks birikmalari sintezi: 0,01 mol Cu (II) oksalati magnitli aralashtirgich (400C) yordamida 10 ml suvda eritildi va

ISSN 3030-3907

aralashma ustidan 0,02 mol Zn atsetatining asetonitrildagi eritmasi tomchilatib qo‘shildi va magnitli aralashtirgichda 500C, minutiga 900 aylanma tezlikda aralashtirish davom ettirildi. Olingan eritma kristallash uchun 4 kunga xona haroratida qoldirildi.

$$Cu(COO)_2 + 2Zn(CH_3COO)_2 \rightarrow [Cu(COO)_2Zn_2(CH_3COO)_4(H_2O)_4]$$

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Moddalar tarkibidagi elementlar miqdorini skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) yordamida aniqlash materiallarni tahlil qilish uchun yuqori axborot mazmuni va olingan tadqiqot natijalarining ishonchliligi tufayli aniq ilmiy-texnologik muammolarni hal qilishda keng qo‘llaniladi [12]. Hosil bo‘lgan kompleks birikmalardagi uglerod, kislorod va metallarning miqdorlarini SEM-EDA usulida aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Mis (II) oksalat bilan atsetatlar asosida olingan kompleks birikmalarning element tahlili natijalari

Birikma	Cu		M		C		O		Chiqish unumi, %
	Hisoblandi	topildi	Hisoblandi	Topildi	Hisoblandi	topildi	Hisoblandi	topildi	
Ca2[Cu(COO)2(CH3COO)4]	13.67	13.71	17.09	17.11	25.64	25.62	41.02	41.07	92
[Cu(COO)2Zn2(CH3COO)4(H2O)4]	10.84	10.83	22.03	22.08	20.33	20.31	43.39	43.43	87
[(Cu(COO)2Pb2(CH3COO)4]	7.98	8.01	51.62	51.59	14.96	14.98	23.94	23.97	69

Sintez qilingan birikmalarning koordinatsiya markazlari va koordinatsiyalanish yo‘llarini aniqlash maqsadida sintez qilingan birikmalarni IQ-spektroskopik usulda taxlili olib borildi.

Dastlabki moddalar molekulalarini tashkil qiluvchi funktsional guruhlarning tebranish chastotalari quyidagi sohalarda kuzatildi, sm^{-1}

CuC_2O_4: δ(Cu-O)- 479, 529, $\nu_s(COO^-)$=1389, $\nu_{as}(COO^-)$=1558

$Ca(CH_3COO)_2$: δ(Ca-O)- 621, 689, $\nu_s(COO^-)$=1435, $\nu_{as}(COO^-)$=1551

$Pb(CH_3COO)_2$: δ(Pb-O)- 615, 656, $\nu_s(COO^-)$=1385, $\nu_{as}(COO^-)$=1531

$Zn(CH_3COO)_2$: δ(Zn-O)- 615, 648, $\nu_s(COO^-)$=1410, $\nu_{as}(COO^-)$=1549

Cu (II) ionining atsetatlar bilan koordinatsion birikmalarini tahlil qilish natijasida IQ-spektrlarda o‘zgarishlar sodir bo‘lganini ko‘rsatdi. Bunda asosiy o‘zgarishlar M-O bog‘da kuzatilgan, shuningdek atsetat guruhining assimetrik va simmetrik tebranishlarida ham o‘zgarishlar bo‘lgan. Bunga sabab dastlab atsetat anioni monodentat koordinatsiyalangan bo‘lsa, koordinatsiyalangandan keyin

ISSN 3030-3907

atsetat guruhi bidentat – ko‘prikli tipga o‘tadi. Dastlabki oksalatlarda M-O bog‘ning tebranish chastotalari 461-476 sm^{-1} va 503-567 sm^{-1} larda kuzatilgan bo‘lsa, koordinatsiyalangandan keyin tebranish chastotalari ortadi va 426-500 sm^{-1} va 503-615 sm^{-1} ga o‘tadi. Erkin atsetatlarda Me-O bog‘ uchun xos bo‘lgan 615-638 sm^{-1} va 648-689 sm^{-1} tebranish chastotalari koordinatsiyalanganda 608-654 sm^{-1} va 652-700 sm^{-1} sohaga o‘tadi.


Dastlabki metallar atsetatlarida atsetat-anionining assimetrik va simmetrik tebranishlari $\nu_s(COO^-)$=1380-1447 sm^{-1} va $\nu_{as}(COO^-)$=1531-1551 sm^{-1} larda kuzatilgan. Koordinatsiyalangan xolatga o‘tganda tebranish sohalarida o‘zgarishlar kuzatilib, $\nu_s(COO^-)$=1371-1443 sm^{-1}, $\nu_{as}(COO^-)$=1514-1609 sm^{-1} ga o‘zgargan. Bu esa bidentat-ko‘prikli koordinatsiyalanishga mos keladi va atsetat anioni markaziy atom bilan ko‘prikli bog‘ hosil bo‘lganini bildiradi. Atsetat guruhini sintez qilingan birikmalarda mavjudligini isbotlovchi yana bir dalil, bu sintez qilingan birikmalar IQ-spektlarida 1013-1036 sm^{-1} va 2797-2988 sm^{-1} da yutilish sohasida metil guruhining deformatsion va valent tebranishlari mavjudligidir (2-jadval).

2-jadval


Koordinasion birikmalarning IQ-spektrlaridagi yutilishlarining xarakterli chastotalari

Birikmalar	**δ(M-O)**	**$\nu_s(COO^-)$ 1300-1420 sm^{-1}**	**$\nu_{as}(COO^-)$ 1500-1600 sm^{-1}**	**$\delta(-CH_3)$ 1013-1076 sm^{-1}**
$Ca_2[Cu(COO)_2(CH_3COO)_4]$	688	1385	1609	1018
$[(Cu(COO)_2Pb_2(CH_3COO)_4]$	675	1396	1593	1025
$[Cu(COO)_2Zn_2(CH_3COO)_4(H_2O)_4]$	700	1396	1531	991

ISSN 3030-3907




1-rasm. $Ca_2[Cu(COO)_2(CH_3COO)_4]$ kompleks birikmasining IQ-spektri



2-rasm. $[(Cu(COO)_2Pb_2(CH_3COO)_4]$ birikmasining IQ-spektri

ISSN 3030-3907



3-rasm. $[Cu(COO)_2Zn_2(CH_3COO)_4(H_2O)_4]$ birikmasining IQ-spektri

XULOSA VA TAKLIFLAR

IQ-spektroskopik tahlil natijasida Cu(II) oksalati bilan metallar atsetatlari ta’sirlashuvida hosil bo‘lgan koordinatsion birikmalar geterometalli kompleks birikmalari bo‘lishi isbotlandi, bunda koordinatsion bog‘ atsetat guruhlarining bidentat-ko‘prikli koordinatsiyalanishi orqali amalga oshadi. Sintez qilingan birikmalarda asetat anionlari mavjudligi metil guruhining valent va deformatsion tebranishlari mavjudligi bilan isbotlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Кутырева М.П., Улахович Н.А., Усманова Г.Ш., Кутырев Г.Л. Полиядерные комплексы Cu(II) с гиперразветвлёнными полиэфиркарбоксилатами // Журнал общей химии. – 2010. – Т. 80, № 4. – С. 625–628.

2. Hao Y.M. Syntheses, Characterization, and Antibacterial Property of Polynuclear Cobalt (III) and Copper (II) Complexes Derived from Similar Tridentate Schiff Bases // Russian Journal of Coordination Chemistry. – 2018. – Vol. 44, № 1. – P. 45–51.

3. Зеленов В.И., Цокур М.Н. Координационные соединения d-элементов с карбоновыми кислотами // VIII Всероссийская научно-практическая конференция студентов и аспирантов «Химия и химическая технология в XXI веке». – Томск, 2007. – С. 95–96.

ISSN 3030-3907

4. Гаркуль И.А., Задесенец А.В., Корольков И.В., Байдина И.А., Коренев С.В. Вторичная координация в структурах оксалатопалладатов(II) цинка(II) и марганца(II) // Журнал структурной химии. – 2020. – Т. 61, № 5. – С. 760–767.
5. Гаркуль И.А., Задесенец А.В., Плюснин П.Е. и др. Оксалатопалладаты(II) цинка(II) и марганца(II) как предшественники биметаллических наноматериалов // Журнал неорганической химии. – 2020. – Т. 65, № 10. – С. 1371–1376.
6. Zadesenets A.V., Garkul I.A., Filatov E.Y. et al. Oxalato complexes of Pd(II) with Co(II) and Ni(II) as single-source precursors for bimetallic nanoalloys // Journal of Thermal Analysis and Calorimetry. – 2019. – Vol. 138. – P. 111–121.
7. Garkul I., Zadesenets A., Filatov E. et al. Oxonium trans-bis(oxalato)rhodate and related sodium salts: a rare example of crystalline complex acid // Acta Crystallographica Section B. – 2021. – Vol. 77, № 6. – P. 1048–1054.
8. Задесенец А.В., Гаркуль И.А., Коренев С.В. Oxalatopalladates of Co, Ni and Zn as precursors of nanoalloys: from thermal properties to supported catalysts // The Twentieth Annual Conference YUCOMAT. – Херцег-Нови (Черногория), 2018.
9. Smith J.A., Tanaka K. Thermal decomposition behavior of copper(II) oxalate-acetate complexes // Journal of Thermal Analysis and Calorimetry. – 2017. – Vol. 129, № 2. – P. 815–823. DOI: 10.1007/s10973-017-6352-9.
10. Xudoyberganov O.I., Yadgarova M.M., Abdullayeva Z.Sh. et al. Kobalt (II) ionining indometatsin bilan kompleks birikmasi sintezi va strukturaviy tadqiqoti // “Kimyoning dolzarb muammolari” respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Urganch: UrDU, 2024. – B. 262–263.
11. Abdullayeva Z.Sh., Kadirova Sh.A., Khasanov Sh.B., Qahorova S.I. Synthesis of coordinating compounds of nickel (II) formiate with zinc and calcium accetates // Electronic Journal of Actual Problems of Modern Science, Education and Training. – Urgench, 2021. – № 8. – P. 92–95.
12. Khasanov Sh.B., Ibodullaeva T.A., Abdullayeva Z.Sh., Khudoyberganov O.I. Synthesis and properties of the coordination compounds calcium stearate with thiocarbamide // Azerbaijan Chemical Journal. – 2023. – № 2. – P. 111–115. DOI: 10.32737/0005-2531-2023-2-111-115.

ISSN 3030-3907

ПИРОЛИЗ МОЙИ ВА ТАР МАҲСУЛОТНИ ҚАЙТА ИШЛАШ АСПЕКТЛАРНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ

Ҳафизова Ҳамидабону Ҳомид қизи
БДТУ, , магистр
Жўраева Лайло Рахматиллаевна
БДТУ, , доцент

Аннотация: Дунё миқёсида ароматик углеводородлар асосан бензол, толуол, ксилол, инден, нафталин, антрацен ва ҳ.к. каби бир ва кўп ядроли бирикмалар нефткимё ва нефтни қайта ишлаш соҳаларининг муҳим маҳсулотлари, шу билан бирга органик синтез, лак-бўёқ, фармацевтик, косметик маҳсулотлар ишлаб чиқариш учун асосий хомашёлардан ҳисобланади. Ушбу мақолада ароматик углеводородлар ажратиб олишда қўлланиладиган эритувчилар ва уларнинг хоссалари ҳақида маьлумот келтирилган.

Калит сўзлар: ароматик углеводородлар, бензол, толуол, ксилол, селективлик, диметилсульфоксид, экстракция, риформинг, пиролиз, фракция, сулфолан, парафин, нафтен

Abstract: Worldwide, aromatic hydrocarbons, mainly mono- and polynuclear compounds such as benzene, toluene, xylene, indene, naphthalene, anthracene, etc., are important products of the petrochemical and oil refining industries, as well as the main raw materials for organic synthesis, the production of paints and varnishes, pharmaceuticals, and cosmetics. This article provides information about solvents used in the extraction of aromatic hydrocarbons and their properties.

Key words: aromatic hydrocarbons, benzene, toluene, xylene, selectivity, dimethylsulfoxide, extraction, reforming, pyrolysis, fractionation, sulfolane, paraffin, naphthene

Аннотация: Ароматические углеводороды, в основном моно- и полиядерные соединения, такие как бензол, толуол, ксилол, инден, нафталин, антрацен и др., во всем мире являются важными продуктами нефтехимической и нефтеперерабатывающей промышленности, а также основным сырьем для производства продукции органического синтеза, лакокрасочной, фармацевтической и косметической продукции. В статье представлена информация о растворителях, используемых для экстракции ароматических углеводородов, и их свойствах.

Ключевые слова: ароматические углеводороды, бензол, толуол, ксилол, селективность, диметилсульфоксид, экстракция, риформинг, пиролиз, фракционирование, сульфолан, парафин, нафтены

Кириш

Бугунги кунда замонавий технологиялар қимматбаҳо ва зарур маҳсулотлар ишлаб чиқариш имконини беради. Қуйи молекуляр ароматик

ISSN 3030-3907

углеводородлар ишлаб чиқариш асосий усулларидан бири, бу бензин фракциялари каталитик риформингидир. Ароматик углеводородларни ажратиб олиш учун аньанавий равишда селектив эритувчилар билан экстракция жараёни қўлланилади, чунки ароматик углеводородларнинг мураккаб таркиби туфайли юқори даражадаги тозаликдаги ароматик углеводородларни оддий ректификация жараёнида азеотроплик туфайли ажратиб бўлмайди. Яқин ўтган йилларда Шўртан ва Устюрт газ-кимё мажмуалари, Ўзбекистон GTL каби янги юқори технологияли кимё саноати объектларини барпо этишга катта эътибор қаратди, бу эса республикамизга марказий осиёда нефт ва газни чуқур қайта ишлаш маҳсулотлари ишлаб чиқариш бўйича етакчи ўринлардан бирини эгаллаш имконини берди.

«Uz-Kor Gaz Chemikal» ҚК МЧЖ Устюрт регионидаги табиий газни қайта ишлаш асосида Ўрта Осиёдаги енг йирик полимер ишлаб чиқарадиган қўшма корхона. Газ-кимё комплексининг йиллик қуввати 387 минг тонна полиэтилен ва 83 минг тонна полипропилен ишлаб чиқаришдан иборат. Шу билан бирга 102 минг тоннадан ортиқ пиролиз дистилляти, 8 минг тонна пиролиз мойи ва 10 минг тонна тар-маҳсулот каби пиролиз жараёнининг иккиламчи маҳсулотлари ҳам ҳосил бўлади.

Республикамизда муқобил технологияларнинг йўқлиги сабаб пиролиз жараёни иккиламчи маҳсулотларини қайта ишлаб инден, нафталин, антрацен ва уларнинг гомологларини ишлаб чиқариш имкони йўқ. Шунинг учун мамлакатимиз газни қайта ишлаш корхоналари чиқиндиларини комплекс қайта ишлаш актуал вазифа ва ўз ечимини талаб қилади. «Uz-Kor Gaz Chemikal» ҚК МЧЖ иккиламчи маҳсулоти пиролиз мойи инден ва нафталин фракцияларига ажратилди.

1-Жадвал

Пиролиз мойи кимёвий таркиби

№	Модда	Миқдори %	Мувофиқлик даражаси
1.	Инден	24,33	93
2.	1-метилинден	13,96	96
3.	Нафталин	21,51	90
4.	1-метил нафталин	12,61	97
5.	2-метил нафталин	6,25	96
6.	1,6-диметил нафталин	9,71	90
7.	Куб қолдиқ	қолгани	

«Uz-Kor Gaz Chemikal» ҚК МЧЖ пиролиз жараёни иккиламчи маҳсулоти пиролиз мойи махсус вакуум дистилляцион қурилмада бешта

ISSN 3030-3907

фракцияга ажратилди. Олинган фракциялар таркибига аниқлик киритиш мақсадида уларнинг ИҚ-спектрлари олинди. Олиб борилган газ хроматографик ва Раман модулли Нисолет 6700 ИҚ спектроскопик анализлар натижаларини таҳлил қилиниб пиролиз мойи асосан инден, нафталин ва улар гомологлари метилинден, 2-метилнафталин, 1-метилнафталин, 1,6-диметилнафталин каби моддалардан иборат эканлиги исботланди.

Пироконденсат пиролиз маҳсулотларининг хомашёга боғлиқ ҳолда 2% – 25% масса миқдорини ташкил қилади. Пироконденсат ўз навбатида уч қисмга пиролиз дистилляти 180^{0}C гача, пиролиз мойи 260 – 280^{0}C гача ва 280^{0}C дан юқори тар маҳсулот қолдиқ фракцияларга ажратилади. Ушбу ишда биз тар маҳсулот хомашёсини қайта ишлаб олинган маҳсулотларнинг кимёвий таркибини ўргандик.

Тар маҳсулот қора-қўнғир рангли, 60–70^{0}C да суюқланадиган, шишасимон қаттиқ, 270 – 280^{0}C ҳароратда қанайдиган мўрт материал. «Uz-Kor Gaz Chemikal» ҚК МЧЖ корхонасида йилига 10 минг тонна атрофида тар маҳсулот ҳосил бўлади. Тар маҳсулот ароматик ва хлорли органик эритувчиларда яхши эрийди. Тар маҳсулотнинг асосий таркибини би-, три- ва полициклик ароматик углеводородлар (60 – 85%), қатронлар ва асфалтенлар (10 – 15%) ташкил қилади. Ҳозирги кунда тар маҳсулот таркибида ароматик углеводородлар миқдори юқори бўлгани учун асосан қурум ва техник углерод ишлаб чиқариш учун хомашё сифатида кенг қўлланилади. Бундан ташқари, эндиликда оғир нефть фракцияларини (нафта, газойил, гудрон, мазут) пиролиз жараёнига жалб қилиш тенденцияси бормоқда. Бу ўз навбатида оғир пиролиз мойи ва тар маҳсулот миқдорининг ортишига олиб келади. Мана шундай факторлар тар маҳсулотни қимматбаҳо маҳсулотларга қайта ишлашни далзарблигини белгилайди.

Тар маҳсулотни қайта ишлаш методини ишлаб чиқиш жараёнида айрим факторларни инобатга олиш зарур: тар маҳсулотнинг енгил фракцияси (350^{0}C гача буғланадиган фракция) кимёвий таркиби, олтингугурт миқдори, куб қолдиқ таркиби ва миқдори, антрацен ва фенантрен ҳамда улар гомологлари миқдори.

Тар маҳсулот дастлаб ваакумли ҳайдаш ускунада фракцияларга ажратилди. Тар маҳсулот қиздирилганда 60 – 70^{0}C ҳароратда суюқланади ва 270 – 280^{0}C ҳароратда дастлабки фракция чиқади. Пиролиз маҳсулотлари таркиби бўйича олиб борилган илмий – амалий изланишлар анализлари натижаларга кўра бир ва кўп ядроли ароматик углеводородлар миқдори жиҳатдан бошқа углеводородларга қараганда икки – уч ҳисса кўпроқ ҳосил бўлишини инобатга олиб, ажратилган фракциялар таркиби сифат ва

ISSN 3030-3907

миқдоран флуорен, антрацен, фенантренга йўналтирилди. Фракциялаш натижалари жадвалда келтирилган.

2-Жадвал

Тар маҳсулот иккиламчи махсулоти фракцион таркиби.

№	Фракциялар	Т бошланиши, ^{0}C	Т тугаши, ^{0}C	Ҳажмий миқдори, %
1.	1-фракция	245	300	27,2
2.	2-фракция	300	360	37,6
3.	Куб қолдиқ	≥500	-	34,7
4.	Йўқотишлар	-	-	0,5

Олинган фракциялар дастлабки таркибан сифат ва миқдорий анализлар учун тайёрланган намуна Агилент 5977А масс-селектив детекторли газ хроматографида анализ қилинди. 300^{0}C ҳароратгача олинган фракция анализ натижаларига асосан $C_{9\text{-}10}$ ароматик углеводородлар бўлиб, автолок-бўёқ ишлаб чиқариш учун махсус эритувчи ва суюлтирувчи маҳсулотлар ишлаб чиқаришга қаратилади.

300 – 350^{0}C фракция совутилганда қайта кристалланиш натижасида антрацен ва фенантрен биргаликда кристалланди. Ҳосил бўлган кристаллар фильтрлаб ажратиб олинди ва 98 – 105^{0}C ҳароратда ваакумда фильтрланиб фенантрен, 115 – 118^{0}C ҳароратда эса флуорен антрацендан ажратилди.

3-Жадвал

Иккинчи фракциянинг сифат ва миқдор таркиби.

№	Модда номи	Ҳажмий улуши, %	Мослик даражаси, %
1.	Диметилацетилен	0.86	87
2.	Флуорен	12.17	87
3.	Дифенилметан	1.98	86
4.	2,4-диметоксиацетофенон	1.70	80
5.	о-Метилбифенил	1.38	90
6.	1,2-дигидрофенантрен	2.77	87
7.	9-метилфлуорен	2.86	87
8.	2-метилфлуорен	1.86	91
9.	Триортотолилфосфат	1.88	95
10.	Фенантрен	32.44	93
11.	4-метил-фенантрен	1.02	90
12.	Антрацен	14.17	89
13.	2-метил- Анрацен	8.69	89
14.	9-метил- Антрацен	2.70	83

ISSN 3030-3907

15.	1,2-бензиндикарбоксил кислота диизоцил эфири	13.46	87

Флуорен, антрацен ва фенантренлар бир-биридан ажратилиб, ҳар бир фракция асосида турли сувда ва мойда эрийдиган бўёвчи моддалар синтези учун хомашё сифатида қўллашга тавсия берилади. Куб қолдиғи таркибини сифат ва миқдоран бошланғич аниқлаш мақсадида ИК-Фурье спектрометри Нисолет 6700 Сонтиниум ва Раман-модул микроскопли анализаторда синовдан ўтказилди. Анализ натижаларига кўра куб қолдиқ резина, қора рангдаги турли пластмассаларни қайта ишлашда қўллаш мумкин бўлган пластификатор сифатида тавсия берилади.

Хулоса қилиб шуни айтишимиз мумкинки, «Uz-Kor Gaz Chemikal» ҚК МЧЖ корхонасида углеводородлар пиролизи жараёнида ҳосил бўладиган пироконденсат фракцияларидан бири бўлган иккиламчи маҳсулот – тар маҳсулотни қайта ишлаб дастлаб уч хил маҳсулот олиш мумкинлиги фракциялаш ва турли замонавий анализлар ёрдамида кўрсатилди.

Биринчи фракция C_{8-10} ароматик углеводородлар аралашмаси эканлиги газ хроматография усулида солиштирма анализ қилинди ва бу фракция автолок-бўёқ маҳсулотлари ишлаб чиқариш учун махсус эритувчи сифатида қўллашга тавсия берилди. Иккинчи фракция таркиби эса асосан флуорен, фенантрен ва антрацен ҳамда уларнинг гомологларидан иборат аралашма эканлиги ҳам юқорида қайд этилган усулда аниқланди. Бу маҳсулотлардан келажакда бўёвчи моддалар синтез қилиш учун тавсиялар берилди. Учинчи куб қолдиқ эса асосан резина, пластмасса буюмлар ишлаб чиқаришда қўлланиладиган импорт пластификаторлар ўрнига тўлиқ ишлатиш мумкинлиги исботланди ва тавсия берилди.

АДАБИЁТЛАР

1. Nurilloev Z. I., Jurayeva L. R., Beknazarov K. S. Obtaining corrosion inhibitors based on crotonaldehyde and thiourea and its studying inhibition efficiency by electrochemical methods //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2025. – Т. 3304. – №. 1. – С. 040092.

2. https://7universum.com/ru/tech/archive/item/19884 Jurayeva L. R. STUDY OF SOLVENTS CAPACITY FOR EXTRACTION // Universium, Химическая технология. – 2025. – Т. 147. – №. 4. – С. 133.

3. Jo‘rayeva L. EXTRACTION BENZENE FROM PYROLYSIS DISTILLATE //Universum: технические науки. – 2024. – Т. 10. – №. 12 (129). – С. 4-8.

4. Ekstraksiyada qo‘llaniladigan erituvchilar asosiy xossalari va ularga qo‘yiladigan talablar, https://devos.uz/article.php?id=425

ISSN 3030-3907

5. Ekstraksiyada qo‘llaniladigan erituvchilar asosiy xossalari va ularga qo‘yiladigan talablar Jo‘raeva L.R. https://devos.uz/article.php?id=425, 2025/4, 208-215 bet.
6. Jo‘rayeva L. R. et al. KO‘P YADROLI AROMATIK KARBON KISLOTA SINTEZINI O’RGANISH //Академические исследования в современной науке. – 2025. – Т. 4. – №. 13. – С. 47-49.
7. Джураева Л.Р Химическая безопасность пищевых продуктов //Универсум: технические науки. – 2021. – №. 12-4 (93). – С. 13-15.
8. Karimova Z.M. Study of by-products composition and synthesis of carbon acids // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2024. 12(129). URL
9. Джураева Л. Р. Анализ Состава Пиролизного Дистиллята Методом Экстракционной Перегонки //Периодиса Жоурнал оф Модерн Пҳилософҳй, Сосиал Ссиенсес анд Ҳуманитиес. – 2022. – Т. 12. – С. 150-154.
10. Orifjon Kadirov, Zilola Karimova Inevistication of the processof obtaining additive for gypsumboard based on polymethylenenaphthaline carboxylic acids. //Universum: технические науки : электрон. научн. журн.2023. № 4 4-7 (109) апрель С.55-59 p.
11. Z.M., Nurmanov S.E., Kodirov O.Sh. Ko‘p yadroli polimetilen aromatik karbon kislota sintezi va tuzilishini o‘rganish. //QarDU xabarlari 2024, 2(2), 110-115 b.
12. Каримова З.М., Кодиров О.Ш. Пиролиз жараёни қаттиқ маҳсулоти таркибидаги антрацен асосида антрахинон ишлаб чиқариш. //Илм-фан (электрон журнал) Ўзбекистон миллий ахборот агентлиги 2022, -Тошкент:

ISSN 3030-3907

ОДДИЙ ФОСФОРЛИ ЎҒИТЛАР ОЛИШДА КАЛЬЦИЙ КАРБОНАТЛИ ХОМАШЁЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Мамуров Баҳодир Арифжанович

Наманган давлат техника университети кимё муҳандислиги кафедраси доценти

E-mail: bahodir8605@mail.ru

Аннотация: Ишда кальций карбонатли хомашёлардан фойдаланган ҳолда таркибида кальций ва магний фосфатлари бўлган оддий ўғит олиш жараёни келтирилган. Ишлаб чиқаришда мазкур усул фойдаланилганда фосфорли оддий ўғитлар олишга кальций карбонатли хомашёларни қамраб олиш мумкинлиги аниқланган.

Калит сўзлар: фосфат кислота, экстракцион фосфат кислота, ўғит, минерал ўғит, фосфорли ўғит, кальций карбонат, магний карбонат, сув тозалаш иншооти карбонатли чиқиндилари, монокальцийфосфат, дикальцийфосфат, қўшалоқ суперфосфат.

Аннотация: В работе представлен процесс получения простого удобрения, содержащего фосфаты кальция и магния, с использованием кальцийкарбонатного сырья. Установлено, что при использовании данного способа в производстве можно охватить карбонатное кальциевое сырье для получения простых фосфорных удобрений.

Ключевые слова: фосфорная кислота, экстракционная фосфорная кислота, удобрение, минеральное удобрение, фосфорное удобрение, карбонат кальция, карбонат магния, карбонатные отходы водоочистных сооружений, монокальцийфосфат, дикальцийфосфат, двойной суперфосфат.

Abstract: The work presents the process of obtaining a simple fertilizer containing calcium and magnesium phosphates using calcium carbonate raw materials. It has been established that when using this method in production, it is possible to cover carbonate calcium raw materials for obtaining simple phosphorus fertilizers.

Keywords: phosphoric acid, extraction phosphoric acid, fertilizer, mineral fertilizer, phosphorus fertilizer, calcium carbonate, magnesium carbonate, carbonate waste from water treatment plants, monocalcium phosphate, dicalcium phosphate, double superphosphate.

Кириш

Республикамиздаги фосфорли ўғитлар ишлаб чиқариш корхоналарида фосфоритлардан аммофос ҳамда оддий суперфосфат ишлаб чиқариш йўлга қўйилган. Аммофос таркибида кальций макроэлементининг озлиги туфайли тупроқ таркибидаги ҳаракатчан кальций йилдан-йилга камайиб бормоқда. Таркибида кальций тутмаган ўғитлар, масалан аммофосдан узоқ вақт фойдаланилганда тупроқдаги кальций камайиб боради. Бу эса ўсимлик ва

ISSN 3030-3907

тирик организмлардаги кальцийнинг етишмовчилигига олиб келади. Натижада тупроқ структураси ёмонлашади, ўсимликлар ҳосилдорлиги пасаяди, тирик организмларда касалликлар келиб чиқади.

Республикамиз ҳудудида саноат ишлаб чиқариш технологик талабларига жавоб берадиган кальций карбонатли: кальцит, оҳактош ва бошқа маҳаллий норуда минерал хомашёлар кўп миқдорда учрайди. Республикамиз давлат балансига олинган 24 та оҳактош ва доломитлашган оҳактош конлари (шунингдек 4 та бошқа турдаги карбонатли хомашё конлари) мавжуд бўлиб, уларнинг заҳираси 1017,8 млн тоннани ташкил қилади, шундан саноат категориялари бўйича оҳак олиш учун атиги 294 минг тонна оҳактош ишлатилади. Шу кунга қадар катта заҳираларга эга бўлган маҳаллий бўр ва оҳактош каби карбонатли хомашёлардан саноат миқёсида фосфорли ўғитлар ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш орқали юқори иқтисодий самарадорликка эришиш мумкинлиги ўрганилмаган.

Таркибида кальций тутган фосфорли ўғит олиш, саноат чиқиндисидан комплекс фойдаланиш, ишлаб чиқариладиган ўғит ҳажмини ошириш ва таннархини камайтириш мақсадида фосфорит термоконцентратидан олинган ЭФКни олдиндан активлаш ва уни таркибида кальций карбонати бўлган хомашё билан нейтраллаш орқали қўшалоқ суперфосфат туридаги ўғитлар олиш усули ўрганилди.

Бунинг учун экстракцион фосфат кислотасини (21,50% P_2O_5) аммоний нитрат иштирокида активлаш ёки унинг буғлатилишидан ҳосил қилинган 31,7% P_2O_5 ва 35,2% P_2O_5 ли концентрланган ЭФК ни бўр хомашёси билан бўр(100% $CaCO_3$):ЭФК(100%P_2O_5) = 1:1÷1,25 нисбатда 60°С ҳароратда 60 минут давомида нейтраллаш жараёни амалга оширилган.

ЭФКни бўр билан нейтраллаш орқали оқимли усулда қўшалоқ суперфосфат олишнинг технологик параметрлари ва маҳсулотларнинг кимёвий таркиби 1- ва 2-жадвалларда келтирилган.

1-жадвал

ЭФКни бўр (90% $CaCO_3$) билан нейтраллаш орқали қўшалоқ суперфосфат суспензияси олиш технологик параметрлари

Кўрсаткичлар	Бўр (100% $CaCO_3$) ва ЭФК (100%P_2O_5) масса нисбатида технологик кўрсаткичлар ва компонентлар миқдори			
	100:100	100:125	100:125	100:125
Бошланғич ЭФК концентрацияси, % P_2O_5	21,5	21,5	31,7	35,2
P_2O_5 (умумий), %	19,7	20,1	27,9	31,5
P_2O_5 (ўзлашадиган), %	16,3	17,6	25,8	29,9

ISSN 3030-3907

P_2O_5 (сувда эрийдиган), %	13,2	13,8	19,4	21,9
CaO (умумий), %	10,0	8,4	11,7	12,8
N (умумий), %	0,52	0,53	0,68	0,77
pH	3,4	2,7	2,8	2,8
H_2O, %	58,9	59,3	45,4	40,1
$(P_2O_{5ўзл.}/P_2O_{5умум.})\cdot100$, % (ёки К)	82,7	87,6	92,5	94,9

2-жадвал

Қўшалоқ суперфосфат кимёвий таркиби ва жараённинг технологик параметрлари

Кўрсаткичлар	Бўр (100% $CaCO_3$) ва ЭФК (100%P_2O_5) масса нисбатида технологик кўрсаткичлар ва компонентлар миқдори			
	100:100	100:125	100:125	100:125
Бошланғич ЭФК концентрацияси, % P_2O_5	21,5	21,5	31,7	35,2
P_2O_5 (умумий), %	46,9	48,7	50,1	51,4
P_2O_5 (ўзлашадиган), %	39,7	43,9	47,3	49,4
P_2O_5 (сувда эрийдиган), %	31,3	33,6	35,2	36,0
P_2O_5 (эркин), %	0,85	2,42	2,28	2,14
CaO (умумий), %	23,7	20,3	21,4	20,9
N (умумий), %	1,24	1,28	1,23	1,26
pH	3,5	3,0	3,1	3,3
H_2O, %	2,15	1,38	1,96	2,29
$(P_2O_{5ўзл.}/P_2O_{5умум.})\cdot100$, % (ёки К)	84,6	90,2	94,4	96,1

21,5% P_2O_5 концентрацияли ЭФК бўр хомашёси билан бўр(100% $CaCO_3$):ЭФК(100%P_2O_5) = 1:1÷1,25 нисбатда нейтраллаш жараёни амалга оширилганда 1 соат мобайнида бўтқадаги P_2O_5 нинг ўзлашадиган миқдори (К), яъни $(P_2O_{5ўзл.}/P_2O_{5умум.})\cdot100$ нисбат 82,7% га етади. Кислота меъёри 1,25 марта оширилганда, яъни бўр(100% $CaCO_3$):ЭФК(100%P_2O_5) = 1:1÷1,25 нисбатда К нинг қиймати 87,6% га етади. Худди шу нисбатда бошланғич кислота концентрацияси 31,7% P_2O_5 ва 35,2% P_2O_5 гача оширилганда эса кислота активлигининг ортиши ҳисобига К нинг қиймати мос равишда 92,5% ва 94,9% гача ортиши кузатилади.

Экстракцион фосфат кислота бўр билан нейтралланганда унинг таркибидаги эркин кислота нейтралланади:

$$2H_3PO_4 + CaCO_3 = Ca(H_2PO_4)_2 + CO_2 + H_2O$$

Шу билан бир вақтда ЭФК ва кальций карбонат хомашёси таркибидаги темир бирикмалари ҳам фосфат кислота билан таъсирлашади:

ISSN 3030-3907

$$Fe_2O_3 + 2H_3PO_4 = 2FePO_4 + 3H_2O$$

Бунинг натижасида $(P_2O_{5ўзл.}/P_2O_{5умум.})\cdot 100$ нисбат камаяди. $(P_2O_{5ўзл.}/P_2O_{5умум.})\cdot 100$ нисбат қиймати хомашё таркибидаги темир бирикмалари миқдорига боғлиқ бўлади. Кислота меъёрининг 1,25 марта ортиши К қийматининг 4,9% га ортишини кўрсатади. Чунки бунда системадаги Fe_2O_3 нинг нисбий улуши камаяди.

Бўтқани қуритиш жараёнида системадаги компонентлар нисбати барқарор ҳолатга келади, натижада системадаги К қийматининг 1,2-2,6% га ортади.

Маълумки, Давлат стандартлари талабларига кўра, маҳсулотдаги $(P_2O_{5ўзл.}/P_2O_{5умум.})\cdot 100$ нисбат 90% дан ортиқ, эркин кислоталилик ($P_2O_{5эркин}$) 5% дан ошмаслиги керак. Ўз навбатида олинган натижалардан кўринадики, бошланғич кислота концентрацияси 21,50%, бўр:ЭФК(100% P_2O_5) = 1:1,25 бўлганда ҳосил қилинган бўтқани қуритиш йўли билан Давлат стандартлари талабларига жавоб берадиган маҳсулот ҳосил қилиниши мумкин. Бундай маҳсулот таркибида, оғирлик % ҳисобида: $P_2O_{5умум.}$ = 48,7; $P_2O_{5ўзл.}$ = 43,9; $P_2O_{5с.э.}$ = 33,6; $P_2O_{5эркин}$ = 2,42; CaO = 20,3; N = 1,28; H_2O = 1,42 ва бошқалар бўлган қўшалоқ суперфосфат олиш мумкин бўлади. Бунда $(P_2O_{5ўзл.}/P_2O_{5умум.})\cdot 100$ нисбат 90,2% ни ташкил этади. Ўғит сифатини ошириш учун бошланғич кислотани олдиндан буғлатиш йўли билан концентрлашнинг мақсадга мувофиқлигини кўриш мумкин. Концентрацияси 31,7% P_2O_5 ва 35,2% P_2O_5 бўлган ЭФК ни бўр хомашёси билан нейтраллаш, бўтқани қуритиш натижасида ҳосил қилинган маҳсулотлар таркибида, мос ҳолда оғирлик % ҳисобида: $P_2O_{5умум.}$ = 50,1 ва 51,4; $P_2O_{5ўзл.}$ = 47,3 ва 49,4; $P_2O_{5с.э.}$ = 35,2 ва 36,0; $P_2O_{5эркин}$ = 2,28 ва 2,14; CaO = 21,4 ва 20,9; N = 1,23 ва 1,26; H_2O = 1,90 ва 3,26 ва бошқалар бўлади. Бунда маҳсулотлардаги $(P_2O_{5ўзл.}/P_2O_{5умум.})\cdot 100$ нисбат 94,4 ва 96,1% ни ташкил этади.

Шундай қилиб, Қизилқум фосфорит термоконцентратидан олинган ва активланган ЭФКни кальций карбонатли хомашёлар билан нейтраллаш ва маҳсулотни қуритиш натижасида қўшалоқ суперфосфат ишлаб чиқаришнинг оптимал шароити: бошланғаич активланган ЭФК концентрацияси 30-35% P_2O_5, бўр (100% $CaCO_3$):ЭФК(100% P_2O_5) = 1:1,25, парчаланиш вақти 1 соат, қуритиш ҳарорати 90-100°С бўлиши аниқланди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР.

1. Мамуров, Б. А., & Шамшидинов, И. Т. (2021). Исследование процесса термообработки известняка для получения кальциймагнийсодержащих фосфорных удобрений. In Современные технологии и автоматизация в технике, управлении и образовании (pp. 101-104).

ISSN 3030-3907

2. Мамуров, Б. А., Шамшидинов, И. Т., Усманов, И. И., & Кодирова, Г. К. (2019). Исследование процесса нейтрализации экстракционной фосфорной кислоты мелом. Universum: химия и биология, (2 (56)), 21-26.
3. Мамуров, Б. А., & Шамшидинов, И. Т. (2020). Использование доломита при получении одинарных фосфорных удобрений. Символ науки, (9), 22-24.
4. Шамшидинов, И. Т., Мирзакулов, Х. Ч., & Мамуров, Б. А. (2017). Переработка магнийсодержащих фосфоритов на экстракционную фосфорную кислоту. Universum: технические науки, (2 (35)), 84-89.
5. Мамуров, Б. А., & Шамшидинов, И. Т. (2022). ИЗУЧЕНИЕ ПРОЦЕССА ПОЛУЧЕНИЯ КАЛЬЦИЙ И МАГНИЙФОСФАТНЫХ УДОБРЕНИЙ ПУТЕМ НЕЙТРАЛИЗАЦИИ ЭКСТРАКЦИОННОЙ ФОСФОРНОЙ КИСЛОТЫ ДОЛОМИТОМ. Universum: технические науки, (7-3 (100)), 13-16.
6. Mamurov, B., Najmiddinov, R., Sultonov, B., Shamshidinov, I., & Kodirova, G. (2021). Investigation of the Process of Purification of Wet-Process Phosphoric Acid and Production of Concentrated Phosphoric Fertilizers Based on it. Chemical Science International Journal, 30(1), 1-10.
7. Ramazonova, D., Turaev, Z., Mamurov, B., Usmanov, I., Qodirov, S., Makhmayorov, J., & Samadiy, M. (2023, June). Extraction of Zinc from Zinc Sublimber with Sulfuric, Thermal and Extraction Phosphoric Acid. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1204, No. 1, p. 012003). IOP Publishing.
8. Mamurov, B. Developing Educational Design Skills in Future Teachers Based on Acmeological Approach. Volume 1 2020 1 (2020): Education and Innovative Research.

ISSN 3030-3907

СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В МОНИТОРИНГЕ ЗДОРОВЬЯ

Нуратдинова Кумар Нуразизовна
Ташкентский университет информационных технологий
E-mail: nuratdinovakumar28@gmail.com
Турмуханов Нуркен Кажымуханович
Ташкентский университет информационных технологий
E-mail: *bobu7707@gmail.com*

Аннотация. В статье рассмотрены современные подходы к использованию технологий искусственного интеллекта в процессах мониторинга здоровья и дистанционного медицинского наблюдения. Проведён систематический анализ научных публикаций, в которых сравниваются методы обработки физиологических данных, возможности предварительной диагностики и прогнозирования клинических состояний. Акцент сделан на применении интеллектуальных алгоритмов при наблюдении пациентов с хроническими заболеваниями, а также на использовании носимых сенсорных систем и мобильных приложений. Особое внимание уделено вопросам практической эффективности, включая снижение риска осложнений и повышение доступности медицинской помощи. Полученные результаты демонстрируют потенциальную значимость интеграции технологий искусственного интеллекта в клиническую практику и перспективы дальнейшего развития цифрового здравоохранения.

Ключевые слова. искусственный интеллект, мониторинг здоровья, дистанционное наблюдение, носимые сенсоры, мобильные технологии, цифровая медицина, предиктивные алгоритмы.

Annotatsiya. Maqolada sog‘liqni saqlash monitoringi va masofaviy tibbiy kuzatuv jarayonlarida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga zamonaviy yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Fiziologik ma’lumotlarni qayta ishlash usullari, klinik holatlarni dastlabki tashxislash va bashorat qilish imkoniyatlari taqqoslangan ilmiy nashrlarning tizimli tahlili o‘tkazildi. Surunkali kasalliklarga chalingan bemorlarni kuzatishda intellektual algoritmlarni qo‘llash, shuningdek, taqiladigan sensorli tizimlar va mobil ilovalardan foydalanishga e’tibor qaratilgan. Amaliy samaradorlik, jumladan, asoratlar xavfini kamaytirish va tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyatini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Olingan natijalar sun’iy intellekt texnologiyalarini klinik amaliyotga joriy etishning potensial ahamiyatini va raqamli sog‘liqni saqlashni yanada rivojlantirish istiqbollarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, salomatlik monitoringi, masofadan kuzatish, taqiladigan sensorlar, mobil texnologiyalar, raqamli tibbiyot, prediktiv algoritmlar.

Abstract. The article examines modern approaches to using artificial intelligence technologies in health monitoring and remote medical observation processes. A systematic analysis of scientific publications has been conducted, comparing

methods for processing physiological data, the possibilities of preliminary diagnosis and prediction of clinical conditions. Emphasis is placed on the application of intelligent algorithms for monitoring patients with chronic diseases, as well as the use of wearable sensory systems and mobile applications. Special attention was paid to the issues of practical effectiveness, including reducing the risk of complications and increasing the accessibility of medical care. The obtained results demonstrate the potential significance of integrating artificial intelligence technologies into clinical practice and the prospects for further development of digital healthcare.

Keywords: artificial intelligence, health monitoring, remote monitoring, wearable sensors, mobile technologies, digital medicine, predictive algorithms.

Введение

В последние годы наблюдается стремительный рост интереса к использованию технологий искусственного интеллекта в системе здравоохранения, что связано с глобальными изменениями в организации медицинской помощи и цифровой трансформацией инфраструктуры здравоохранения. Развитие цифровых инструментов способствует формированию новых механизмов сбора, анализа и интерпретации медицинских данных, что особенно актуально в условиях увеличения нагрузки на медицинские учреждения и роста доли хронических заболеваний среди населения [1]. Внедрение технологий искусственного интеллекта повышает возможности медицинской системы в части раннего выявления осложнений и динамического наблюдения за состоянием пациентов. Особое значение имеет потенциал ИИ в организации непрерывного мониторинга, позволяющего фиксировать изменения жизненно важных параметров в режиме реального времени и предоставлять медицинским специалистам информацию, необходимую для своевременной профилактики неблагоприятных событий [2]. Существенными направлениями применения искусственного интеллекта являются мобильные приложения, телемедицинские сервисы, носимые устройства и интеллектуальные сенсорные системы, обеспечивающие постоянный доступ к физиологическим показателям человека. Их интеграция с методами машинного обучения формирует возможности не только для диагностики, но и для построения прогностических моделей, позволяющих предвидеть развитие осложнений, корректировать алгоритмы лечения и проводить оценку эффективности терапии. Многочисленные международные исследования свидетельствуют о том, что применение алгоритмов искусственного интеллекта способствует повышению точности диагностики, снижению количества осложнений и увеличению эффективности контроля хронических заболеваний, что имеет большое значение для повышения качества медицинской помощи [3]. В совокупности аналитические данные подтверждают перспективность внедрения ИИ в мониторинг здоровья и

ISSN 3030-3907

подчёркивают необходимость дальнейшего изучения возможностей этой технологии, её клинического потенциала и организационных аспектов интеграции в существующую медицинскую практику XXI века.

МЕТОДЫ

Методологическая часть исследования основывается на систематическом анализе научных источников последних лет, посвящённых вопросам применения технологий искусственного интеллекта для мониторинга состояния здоровья пациентов. В рамках исследования была проведена выборка публикаций международных научных изданий за период с 2021 по 2025 годы, преимущественно представленных в электронных библиотеках PubMed, Sensors, Frontiers, Wiley, Journal of Medical Internet Research, а также в аналитических материалах Всемирной организации здравоохранения. Для отбора литературы использовались поисковые ключевые слова, отражающие основное содержание темы, такие как «Artificial Intelligence-based Monitoring», «Remote Patient Monitoring Systems», «Wearable AI», «Health Data Analytics», «Digital Health Technologies», «Smart Medical Monitoring». Применение расширенного поискового запроса позволило включить в обзор исследования, ориентированные на использование методов машинного обучения, интеллектуальных алгоритмов анализа данных, а также цифровых носимых технологий в медицинской практике. При формировании выборки учитывались критерии научной актуальности, наличие клинического контекста, описания применяемых технологий, используемой методологии и полученных результатов. В анализ включались публикации, содержащие сведения о практическом использовании алгоритмов искусственного интеллекта при мониторинге состояния здоровья пациентов. Исключались статьи, имеющие исключительно алгоритмическую направленность без упоминания клинической эффективности или без описания механизма применения технологий в медицинской практике. Дополнительно оценивались полнота текстовой информации, обоснованность используемых методик, степень доказательности представленных данных, наличие ограничений исследований, а также возможности дальнейшего применения технологий ИИ в клинической деятельности. Такой подход позволил сформировать достоверную теоретическую базу, необходимую для последующего обобщения и интерпретации результатов систематического обзора.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Полученные данные систематического обзора подтверждают, что современные исследования в области применения искусственного интеллекта в мониторинге здоровья демонстрируют устойчивую тенденцию к внедрению интеллектуальных аналитических алгоритмов в ключевые клинические направления. В частности, анализ научной литературы

ISSN 3030-3907

свидетельствует о стремительном увеличении количества публикаций, посвящённых применению методов машинного обучения, предиктивных моделей и автоматизированной обработки данных для наблюдения за пациентами с хронической патологией [2], [3], [5]. Наиболее значимое количество исследований приходится на области сердечно-сосудистых заболеваний, сахарного диабета, болезней дыхательной системы и возраст-ассоциированных нарушений. В каждом из случаев применение ИИ-технологий направлено на повышение точности диагностических процедур, оперативность проведения наблюдения и предотвращение неблагоприятных клинических исходов за счёт своевременного реагирования на изменения физиологических параметров организма пациента [5], [8]. Анализ публикаций показывает, что внедрение искусственного интеллекта способствует повышению эффективности программ наблюдения за пациентами с хроническими заболеваниями, включая оценку жизненно важных показателей в реальном времени и своевременное выявление осложнений. Особенно значимым направлением является применение алгоритмов машинного обучения для анализа динамических физиологических данных, позволяющих выявлять скрытые нарушения сердечного ритма и прогнозировать риск эпизодов декомпенсации [5]. Отмечается, что использование ИИ в сочетании с мобильными устройствами обеспечивает возможность непрерывного наблюдения и формирует новую модель медицинской помощи, ориентированную на предупреждение осложнений, а не только на их лечение после возникновения.

В значительном числе исследований показано, что использование носимых устройств позволяет существенно расширить диапазон физиологических параметров, регистрируемых у пациента вне медицинского учреждения. Носимые сенсоры обеспечивают сбор информации о частоте сердечных сокращений, сатурации кислорода, уровне физической активности, температуре тела и качестве сна, что значительно увеличивает информативность наблюдения и расширяет возможности клинического анализа [8]. С целью систематизации представленных данных ниже приведена обобщающая таблица 1, отражающая примеры применения носимых сенсоров и мобильных технологий в современных клинических исследованиях.

Таблица-1.

Применение носимых сенсоров и мобильных технологий в мониторинге здоровья

Тип сенсора / технологии	**Пример устройства**	**Что измеряет**	**Как используется в медицине**	**Клинический эффект**

ISSN 3030-3907

Сердечный сенсор	Apple Watch	сердечный ритм	выявление аритмий	снижение риска осложнений
Сенсоры глюкозы	CGM Dexcom	уровень глюкозы	управление диабетом	уменьшение гипогликемии
Пульсоксиметрический сенсор	Garmin / Mi Band	сатурация кислорода	оценка дыхательной функции	раннее выявление гипоксии
Акселерометр	Fitbit	физическая активность	оценка двигательной активности	профилактика падений
Сенсор дыхания	ResMed Sensors	дыхание и частота	хронические респираторные заболевания	предупреждение обострений
Температурный сенсор	Oura Ring	температура тела	контроль воспалительных процессов	ранняя диагностика
Сенсор сна	Samsung Health	качество сна	выявление нарушений сна	коррекция терапии
GPS-сенсор	мобильные приложения	перемещение	мониторинг активности пожилых	предотвращение дезориентации
Медицинский IoT сенсор	Smart Home Monitoring	комплексные параметры	домашний мониторинг	снижение госпитализации
Мобильные приложения	Diabetes App	данные пациента	контроль хронических заболеваний	повышение приверженности лечению

Кроме того, применение мобильных технологий способствует формированию пациент-ориентированного подхода, в рамках которого пациент становится активным участником процесса наблюдения, что значительно повышает приверженность назначенной терапии.

ISSN 3030-3907

В современных исследованиях особое внимание уделяется использованию дистанционных технологий наблюдения за состоянием беременных женщин, поскольку антенатальный период требует регулярного контроля физиологических показателей и своевременного выявления возможных осложнений. Применение мобильных сенсоров, домашних измерительных устройств и медицинских приложений обеспечивает получение данных в реальном времени без необходимости частых визитов в лечебные учреждения.

Использование дистанционного мониторинга позволяет отслеживать артериальное давление, частоту сердечных сокращений, уровень глюкозы, двигательные ощущения плода и другие параметры, что значительно повышает качество наблюдения. Такие решения особенно востребованы при угрозе осложнений, гестационном диабете, преэклампсии или повышенном риске преждевременных родов.

Таким образом, внедрение технологий дистанционного мониторинга способствует персонализации медицинской помощи и снижению рисков, связанных с поздней диагностикой осложнений беременности, а также повышает доступность мониторинга в регионах с ограниченной медицинской инфраструктурой. С учётом результатов анализа научных источников ниже представлена таблица 2, демонстрирующая реальные примеры использования ИИ-технологий и носимых сенсорных систем в мониторинге беременности.

Таблица 2.

Примеры дистанционного мониторинга беременных

Тип мониторинга	**Что контролируется**	**Пример устройства / технологии**	**Цель применения**	**Клинический эффект**
Контроль артериального давления	давление, пульс	домашний тонометр + мобильное приложение	ранняя диагностика преэклампсии	снижение риска осложнений
Мониторинг сердечного ритма	сердцебиение матери	умные часы	контроль состояния	выявление тахикардии

ISSN 3030-3907

Мониторинг состояния плода	шевеление плода	Pregnancy Tracker App	наблюдение за активностью	предупреждение гипоксии
Контроль глюкозы	уровень сахара	сенсоры гликемии	гестационный диабет	снижение гипергликемии
Мониторинг массы тела	изменение веса	мобильный трекер здоровья	контроль гестационного набора	профилактика осложнений
Оценка сна	качество сна	носимые браслеты	контроль усталости и стресса	улучшение самочувствия
Контроль активности	шаги, нагрузка	фитнес-браслеты	оценка физической активности	снижение нагрузки

Обобщение данных подтверждает, что внедрение искусственного интеллекта в практическую медицину обеспечивает: повышение точности диагностических процедур, снижение вероятности госпитализаций, улучшение качества клинических решений, повышение эффективности лечения, расширение возможностей профилактики.

Также отмечается, что применение ИИ обеспечивает повышение доступности медицинских услуг в удалённых регионах, где доступ к специализированной помощи традиционно ограничен [1], [3].

ОБСУЖДЕНИЕ

Полученные результаты демонстрируют устойчивую тенденцию к расширению применения технологий искусственного интеллекта в системах медицинского мониторинга. Однако, несмотря на растущий объём положительных данных, научная литература подчёркивает наличие ряда нерешённых вопросов, требующих дальнейшего изучения. В первую очередь, это касается методологических различий в представленных исследованиях, что затрудняет прямое сопоставление результатов и формирование универсальных клинических рекомендаций. Отдельное внимание исследователи уделяют ограничениям, связанным с репрезентативностью участвующих выборок. Большинство публикаций основаны на относительно небольших клинических группах, что не всегда позволяет достоверно экстраполировать результаты на широкие категории пациентов. Кроме того, часть работ ориентирована на пилотные исследования, в которых отсутствует длительное наблюдение, необходимое для подтверждения эффективности технологий в реальной клинической практике. Существенным ограничивающим фактором по-прежнему остаётся

ISSN 3030-3907

вопрос защиты медицинских данных. Использование ИИ-систем предполагает обработку значительного объёма персональной информации, что неизбежно приводит к появлению новых рисков, связанных с безопасностью, конфиденциальностью и юридической ответственностью медицинских учреждений. Исследователи подчёркивают необходимость создания международных стандартов регулирования, позволяющих обеспечить надёжную защиту информации на всех этапах её обработки.

Несмотря на указанные проблемы, анализ литературы свидетельствует о том, что будущие перспективы внедрения искусственного интеллекта остаются весьма значительными. Интеллектуальные системы постепенно трансформируют традиционные подходы к наблюдению, позволяя переходить от эпизодического врачебного контроля к непрерывной цифровой поддержке пациента. В сочетании с мобильными платформами и носимыми сенсорными устройствами ИИ способен формировать персонализированные модели наблюдения, адаптированные к индивидуальному профилю пациента и его клиническим рискам.

9. Yousefian, S., & Hosseini, M. G. (2022). The effect of ethanolamine derivatives on the electrochemical behavior of steel in acidic environments. Materials Today Communications, 33, 104–115.
10. ASTM G31-21. (2021). Standard Guide for Laboratory Immersion Corrosion Testing of Metals. ASTM International.

ISSN 3030-3907

OSILGAN MASSALARI BO‘LGAN DOIRAVIY QOVUSHOQ-ELASTIK PLASTINKALARNING ERKIN TEBRANISHLARI

Jalolov Farruh Baxshullayevich
Osiyo xalqaro universitet, Umumtexnik fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: jalolovfarruh2@mail.ru

Annotatsiya. Doiraviy yupqa qovushoq-elastik plastinkalarga osilgan massalardan tashkil topgan mexanik sistemaning erkin tebranishlari qaralgan. Oxirgi yillarda radio elektron apparatlar (REA) korpuslarining materiallari steklotekstolit keng qo‘laniladi. Shuning uchun nazariy hisoblashlarda bu materiallardan foydalanilgan. Plastinka reologik xususiyatlarini hisobga olish chastotaning haqiqiy va mavhum qismlarini 10% ga kamaytirishga imkon berar ekan. Shunday qilib, biriktirilgan massalari bo‘lgan doiraviy plastinkaning dissipativ bir jinsli va bir jinsli bo‘lmagan mexanik tizimlarning erkin tebranishlari muammosini hal qilishning matematik qo‘yilishi va yechish metodikasi ishlab chiqilgan. Dissipativ mexanik tizim elementlari uchun kuchlanish va deformasiyalar orasidagi bog‘liqlik chiziqli irsiy Bolsman-Voltera munosabatlarini qanoatlantiradi. Chastotalar va dempferlash koeffisientining o‘lchovsiz chastota bikrlik koeffitsientiga bog‘liq o‘zgarishi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: doiraviy yupqa qovushoq-elastik plastinka, osilgan massa, erkin tebranishlar, chastota, qovushqoqlik**.**

Abstract. Free oscillations of a mechanical system consisting of masses suspended from thin circular viscoelastic plates are considered. In recent years, the materials of radio-electronic devices (REA) housing, glass textolite, have been widely used. Therefore, these materials were used in theoretical calculations. Taking into account the rheological properties of the plate allows reducing the real and imaginary parts of the frequency by 10%. Thus, the mathematical formulation and methodology for solving the problem of free oscillations of dissipatively homogeneous and inhomogeneous mechanical systems of a circular plate with a combined mass have been developed. For elements of a dissipative mechanical system, the relationship between stresses and deformations satisfies the linear inherited Boltzmann-Volterra relations. The change in frequencies and the damping coefficient depending on the stiffness coefficient of the dimensionless frequency is presented.

Keywords: circular thin viscoelastic plate, suspended mass, free oscillations, frequency, viscosity.

Аннотация. Рассмотрены свободные колебания механической системы, состоящей из масс, подвешенных на круглых тонких вязкоупругих пластинах. В последние годы широко используются материалы корпусов радиоэлектронных аппаратов (РЭА) стеклотекстолит. Поэтому в

ISSN 3030-3907

теоретических расчетах использовались эти материалы. Учет реологических свойств пластинки позволяет снизить действительную и мнимую части частоты на 10%. Таким образом, разработана математическая постановка и методика решения задачи свободных колебаний диссипативно однородных и неоднородных механических систем круговой пластинки с присоединенными массами. Для элементов диссипативной механической системы зависимость между напряжениями и деформациями удовлетворяет линейному наследственному соотношению Больцмана-Вольтера. Приведено изменение частот и коэффициента демпфирования в зависимости от коэффициента жесткости безразмерной частоты.

Ключевые слова: круглая тонкая вязкоупругая пластина, подвешенная масса, свободные колебания, частота, вязкость.

1. Kirish


Harakatlanuvchi jismlarning konstruktiv elementlariga ta'sir etuvchi omillar yuzaga keladigan tebranish va zarba yuklari, akustik effektlar va boshqalar kiradi. Aerodinamik kuchlar harakatlanuvchi apparatlarning elementlari va qismlarining vibrasion tebranishlarini oshiradi. Bunday tuzilmalarni loyihalashda strukturaning xavfsizlik chegaralarini aniqlash, rezonans chastotalarini va strukturaning detallariga ta'sir qiluvchi faktorlarni hisoblash uchun dinamik hisob-kitoblarni amalga oshirish. Radio texnik apparatlarni hisoblash murakkablashadi, chunki bunday tuzilmalar juda ko‘p kichik qismlarga ega bo‘lgan murakkab shaklga ega elementlardan iborat. Mexanik sistemaning chiziqli elastik erkin va majburiy tebranishlarini hisoblash usullari analitik va sonli usullar yordamida to‘liqlikka yaqin qilingan. Ko‘plab adabiyotlar tebranishni amaliyotda qo‘llashga bag‘ishlangan bo‘lib, sonli hisoblashlar ham keng qo‘lanilgan. Xususan, elastik tebranish tizimlarini vibratsiyadan hisoblash nazariyasi adabiyotlarda batafsil yoritilgan. Erkinlik darajasi chekli bo‘lgan chiziqli elastik mexanik sistemada erkin chastotalar va tebranishlar formasini hisoblash muammosi standart dasturlardan foydalangan holda to‘liq hal qilingan. Tarqalgan parametrlarni elastik mexanik sistemalarni dinamik holatini hisoblash masalalari asosan sonli usullarni foydalanib yechilgan.

2. Metodlar

2.1. Masalaning qo‘yilishi va yechish usullari.

Yupqa deformasiyalanuvchi plastinkalarga yoki qobiqlarga biriktirilgan massalari bo‘lgan konstruksiyalar samolyot, uchuvchisiz uchuvchi apparatlar, ishlab chiqarish korxonalarida va qurilishda keng qo‘llaniladi. Qo‘yilgan masala massalar osilgan plastinkani erkin tebranishlarini topishga olib kelinadi. Bu yerda sistemalarda chastotalarni tekshirish rezonans hodisalalarini oldindan prognoz qilish imkonini beradi.

ISSN 3030-3907



1 - rasm. Plastinkaga o‘rnatilgan massa

Faraz qilaylik radusi R, qalinligi h, materialning zichligi ρ va operator formadagi silindrik bikirligi $\tilde{D}$ bo‘lgan qovushoq elastik plastinkaga $m_k (k=1,...,N)$ osilgan bo‘lsin. Operator bikirliklar quyidagicha

$$\tilde{D} f(t) = D_0 \left[f(t) - \int_0^t R_D(t-\tau) f(\tau) d\tau \right];$$
$$\tilde{c}_\kappa f(t) = c_{0\kappa} \left[f(t) - \int_0^t R_{c\kappa}(t-\tau) f(\tau) d\tau \right] \quad (1)$$

Bu yerda $f(t)$– vaqtning ixtiyoriy funksiyasi, $R_D(t-\tau)$ va $R_{c\kappa}(t-\tau)$– relaksasiya yadrolari, $D_0 = E_0 h^3 / (12(1-\nu^2))$, $c_{0\kappa}$ – oniy elastiklik moduli. U holda plastinka va unga osilgan massaning harakat- differensial tenglamalari quyidagicha bo‘ladi:

$$\tilde{D}\nabla^4 w + \rho h \ddot{w} = \sum_{k=1}^{N} \tilde{c}_k (y_k - w_k)\delta_k + q(r,\theta,t),$$
$$m_k \ddot{y}_k + \tilde{c}_k (y_k - w_k) = p_k(t), \quad (2)$$

Integro - differensial tenglamadan integralni yo‘qotish uchun Filatov va Sunchaliev tomonidan ishlab chiqilgan “muzlatish” usulini qo‘laymiz, u holda (1) quyidagi ko‘rinishni egalaydi

$$\bar{D} f(t) = D_0 \left[1 - \Gamma_D^C(\omega_R) - i\Gamma_D^S(\omega_R) \right] f(t) = D_0 \Gamma_D,$$
$$\bar{c}_\kappa f(t) = c_{0\kappa} \left[1 - \Gamma_{c\kappa}^C(\omega_R) - i\Gamma_{c\kappa}^S(\omega_R) \right] f(t) = c_{0\kappa} \Gamma_{ck}, \quad (3)$$

bu yerda

$$\Gamma_D^c(\omega_R) = \int_0^\infty R_D(\tau) \cos\omega_R \tau \, d\tau, \Gamma_{ck}^C(\omega_R) = \int_0^\infty R_{c\kappa}(\tau) \cos\omega_R \tau \, d\tau,$$

$$\Gamma_D^s(\omega_R) = \int_0^\infty R_D(\tau) \sin\omega_R \tau \, d\tau, \quad \Gamma_{ck}^s(\omega_R) = \int_0^\infty R_{c\kappa}(\tau) \sin\omega_R \tau \, d\tau.$$

U holda (2) differensial tenglama quyidagi ko‘rinishni egallaydi

$$\bar{D}\nabla^4 w + \rho h \ddot{w} = \sum_{k=1}^{N} \bar{c}_k (y_k - w_k)\delta_k + q(r,\theta,t),$$
$$m_k \ddot{y}_k + \bar{c}_k (y_k - w_k) = p_k(t). \quad (4)$$

Masalani yechishda chegaraviy va boshlangich shartlar qo‘yiladi

$$L_1(W)\big|_{r=R} = 0, L_2(W)\big|_{r=R} = 0, \quad (5)$$

ISSN 3030-3907

$$w\big|_{t=0}=0,\frac{\partial w}{\partial t}\big|_{t=0}=0,$$
$$y_k\big|_{t=0}=0,\frac{\partial y_k}{\partial t}\big|_{t=0}=0 \qquad (6)$$

Ixtiyoriy o‘zgarmas kattaliklarni topish uchun (5) shartdan foydalanamiz. Agar massa m_k lar osilgan nuqtalar (r_k,θ_k) ni ko‘chishlarini yozib chiqsak quyidagicha bo‘ladi

$$W_j(r_j,\theta_j)=\sum_{n=0}^{\infty}\Big[A_nJ_n(\beta_br_j)+B_nI_n(\beta_br_j)\Big]\cos(n\theta)-$$
$$-\sum_{k=1}^{N}\sum_{n=0}^{\infty}\sum_{j=1}^{\infty}\frac{\bar{c}_k(Y_k-W_k)V_{njk}}{D_0s_{nj}(\beta_b^2-\alpha_{1nj}^4)}V_{jik}(r,\theta),i=1,2,..N. \qquad (7)$$

Agar olingan yechimlarni chegaraviy shartlarga qo‘ysak $\bar{c}_k(Y_k-W_k)$ tenglamadan chiqarib olib soddalashtirsak $V_{nj}(r,\theta)$ o‘zgaruvchiga nisbatan quyidagicha algebraik tenglamalalar sistemasini olamiz.

$$A_nL_1\left[J_n(\beta_br)\right]\big|_{r=R}+B_nL_1\left[I_n(\beta_br)\right]\big|_{r=R}=0,$$
$$A_nL_2\left[J_n(\beta_br)\right]\big|_{r=R}+B_nL_2\left[I_n(\beta_br)\right]\big|_{r=R}=0,n=1,2..N. \qquad (8)$$

Bu holatda (8) dan $A_{ns}=B_{ns}=0$ bo‘ladi. Bu sistemaning (N-1)- tenglamasidan $Y_{js}=C_{js}Y_{Ns}$ (j=1,2…N;C_{Ns}=1).

Shunday qilib, olingan yechimlarga asoslanib tebranishlar formasini topamiz $(W_s(r,\theta)\,W_s(r,\theta))$

$$W_r(r,\theta)=-\frac{\beta_s^4}{\rho h}\sum_{k=1}^{N}C_{ks}m_k\sum_{n=0}^{\infty}\sum_{i=1}^{\infty}\frac{V_{nik}V_{nij}}{s_{ni}(\beta_s^4-\alpha_{1nj}^4)},V_{ks}=C_{ks}(C_{Ns}=1). \qquad (9)$$

Xos amplitudalar tenglamasini Y_{km} va Y_{kj} larni mos ravishda Y_{kj}, Y_{km} larga ko‘paytirib, ikinchi tenglamadan ayirsak va $Y_{mk}W_{kj}-Y_{kj}W_{km}$ ni tenglamadan chiqarib olsak, u holda $\omega_m\neq\omega_j$ ekanligidan ortogonalik shartini keltirib chiqaramiz

$$\int_0^R\int_0^{2\pi}W_mW_jrdrd\theta+\sum_{k=1}^{N}\frac{m_k}{\rho h}Y_{km}Y_{kj}=0,m\neq j\ . \qquad (10)$$

(2) tenglamaning umumiy yechimi quyidagicha bo‘ladi

$$w(r,\theta,t)=\sum_{m=1}^{\infty}q_m(t)W_m(r,\theta),y_k(t)=\sum_{m=1}^{\infty}q_m(t)Y_{km},k=1,...,N\ . \qquad (11)$$

Agar (11) yechimni (2) sistemaga qo‘yilsa, u holda qo‘yidagi sistemani olamiz

$$\sum_{m=1}^{\infty}\left(\ddot{q}_m+\omega^2q_m\right)\rho hW_m=q(r,\theta,t),$$
$$\sum_{m=1}^{\infty}\left(\ddot{q}_m+\omega^2q_m\right)m_kY_m=P_k(t),\ k=1,2,...N \qquad (12)$$

ISSN 3030-3907

Bu sistemani birinchi tenglamasini W_k ga ko‘paytirib, plastinka yuzasi bo‘yicha integrallasak, ikkinchi tenglamada k bo‘yicha yig‘sak va ortogonalik shartidan foydalansak, u holda quyidagi tenglamalarni olamiz

$$\ddot{q}_j + \omega_j^2 q_j = Q_j(t); j = 1,2... \quad (13)$$

bu yerda $Q_j(t)$ - umumlashgan kuch bo‘lib, quyidagi formula bilan aniqlanadi

$$Q_j(t) = \frac{1}{\rho h M_j}\left(\int_0^R \int_0^{2\pi} q(r,\theta,t) W_j(r,\theta) r dr d\theta + \sum_{k=1}^{n} P_k(t) Y_{kj}\right),$$

(12) tenglamani umumiy yechimi quyidagicha bo‘ladi

$$q_j(t) = A_j \cos\omega_j t + B_j \sin\omega_j t + \frac{1}{\omega_j}\int_0^t Q_j(\tau)\sin\omega_j(t-\tau)d\tau, \quad (14)$$

bu yerda A_j va B_j boshlang‘ich shartlardan topiladi:

$$\begin{aligned} &w(r,\theta,0) = w_0(r,\theta), \\ &\dot{w}(r,\theta,0) = \dot{w}_0(r,\theta), \\ &y_k\big|_{t=0} = y_{k0}, \\ &\dot{y}_k\big|_{t=0} = \dot{y}_{k0}, k = 1,2...N, \end{aligned} \quad (15)$$

va ortogonalik sharti quyidagi ko‘rinishni egallaydi

$$\begin{aligned} A_j &= \frac{1}{M_j}\left(\int_0^R \int_0^{2\pi} w_0 W_j r dr d\theta + \sum_{k=1}^{N} \frac{m_k}{\rho h} y_{k0}(t) Y_{kj}\right), \\ B_j &= \frac{1}{\omega_j M_j}\left(\int_0^R \int_0^{2\pi} w_0 W_j r dr d\theta + \sum_{k=1}^{N} \frac{m_k}{\rho h} \dot{y}_{k0}(t) Y_{kj}\right), \end{aligned} \quad (16)$$

Tizim elementlarining qovushqoqlik xususiyatlarini yoki nuqtaviy ulanishlarida sodir bo‘ladigan deformasiyalanish jarayonlarini tavsiflash uchun Bolsman-Volter chiziqli irsiy nazariyasidan foydalanamiz:

$$\sigma_{mk}^n(t) = E_n\left[\varepsilon_{mk}^n(t) - \int_{-\infty}^{t} R^n(t-\tau)\cdot\varepsilon_{mk}^n(\tau)\, d\tau\right], \quad (17)$$

Kuchlanishlar vaqtning davriy funksiyasi bo‘lishi uchun (17) irsiy integralning pastki chegarasi minus cheksizlikka teng deb qabul qilinadi. Agar pastki chegara nolga teng bo‘lsa, kuchlanish vaqt o‘tishi bilan pasayib ketadigan aperiodik tebranishlarni beradi.

Relasatsiya yadrosi $R(t-\tau)$ integrallanuvchanlik, uzluksizlik ($t=\tau$ dan tashqaridan), musbat aniqlanganlik va monotonlik kabi xossalarga ega bo‘lishi kerak:

3. Sonli natijalar va ularning tahlili

Yuqorida olingan analitik yechim asosida Gauss, Laplos teoremasi, Maxsus funksiyalaoni hisoblash va Myuller usulari asosida yaratilgan (C^{++}) dastur bilan sonli natijalar olindi. Yular massasi $M_1=0.1M_0$, bu yerda M_0 пластинка массаси.

ISSN 3030-3907

Пластинкага осилган масса нуқтавий деб олинган. Пластинканинg хос тебранишлари ўрганилган. У ҳолда хос частоталар топилади. Пластинканинг физик - механик характеристикаси қуйидагича $E = 2.1 \cdot 10^{11} Па; \rho = 7.85 \cdot 10^3 кг/м^3, \nu = 0.3$, радиуси R ва қалинлиги 0.5х0.001м, relaksasiya yadrosining parametrlari quyidagicha: $A = 0{,}048$; $\beta = 0{,}05$; $\alpha = 0{,}1$.

1- Jadval.


Plastinkaning egilishdagi chastotasini [51] ish bilan solishtirish

Plastinka o‘lchamlari h/R	Dissertasiyada olingan sonli natijalar	[11] ishda olingan sonli natijalar, Гц.	Xatolik, %
0,20	1071,17	1079,00	0,14
0,40	1106,32	1197,18	3,12
0.60	1273,24	1265,78	3,35
1.0	1301,43	1307,86	4,07
2.0	1567,32	1563,1	4,65

Ko‘rinib trubdiki, olinadigan natijalar kichik chastotalarda 6% gacha xatolik berar ekan.

Oxirgi yillarda radio elektron apparatlar korpuslarining materiallari steklotekstolit keng qo‘laniladi. Shuning uchun nazariy hisoblashlarda bu materiallardan foydalanilgan. Bu materialni fizik- mexanik xususiyatlari quyidagicha: – Yung moduli (E) -10^5 кгс/м^2, – zichligi (ρ), - 1400 кг/м^3, – chastota (Ω), - 200. Tashqi vibratsion nagruzka amplitusini 1 mm deb olamiz. Vibratsion ko‘chish ta'sirida mexanik sistema tebransa, u holda $u_0(t) = A_0 \sin(\Omega t + \varphi)$ ko‘rinishda olinadi. Bu yerda A_0 - viratsion yuklanish aplitudasi, Ω - tashqi vibratsion yuklanishning davriy chastotasi, φ- boshlang‘ich faza. a) qattiq mahkamlannganlik, б) sharnirli tayanch shartlari uchun olindi. Natijalar 2.2-rasmda keltirilgan.

ISSN 3030-3907




2 - rasm. Chastotani plastinka qalinligi bo‘yicha o‘zgarishi keltirilgan.

Bu 2.2 - rasmda asosiy chastotani plastinka qalinligi bo‘yicha o‘zgarishi keltirilgan. Tebranishlar chastotasini birinchi va ikinchi modasini prujinkaning bikirligiga bog‘liq o‘zgarishi keltirilgan. Dissipativ bir jinsli bo‘lmagan mexanik sistema uchun oldingi masalada olingan mexanik samara bu yerda ham o‘rinli bo‘lishi topildi. Yig‘ilgan massalar sonini ko‘payishi erkin tebranishlar chastotasini haqiqiy va mavhum qismini 20% kamaytirishga olib kelar ekan.

Osiladigan massalar sonini oshishi chastotalarni kamayishiga olib kelar ekan. Chastotalarni mavhum qismini o‘zgarishi ham real chastotani o‘zgarish tendensiyasiga yaqin bo‘lar ekan. Keyingi 3 - rasmda 2 ta simetirik massa osilganda steklotekstolit material uchun osilgan massani plastinka massasiga nisbati olingan (sharnirli plastinka uchun) . Rasmda uchta chastotalar modasini massalar nisbatiga bog‘liq o‘zgarishi keltirilgan.

ISSN 3030-3907



3 – rasm. Chastota haqiqiy qismini 3 ta modasini massalar nisbatiga bog‘liq o‘zgarishi

2- jadval.

Xos chastotaning beshta modasini k ga bog‘liq o‘zgarishi

K	ω_1	ω_2	ω_3	ω_4	ω_5
1	0.08237	0.23371	0.42371	1.90235	2.52379
2	0.07143	0.23113	0.42143	0.92143	1.92353
3	0.06152	0.21628	0.43201	0.87152	1.91452
4	0.05474	0.12316	0.41414	0.76014	0.96147
5	0.04139	0.11432	0.41101	0.71392	0.84132
6	0.03127	0.11326	0.33801	0.71276	0.82278
7	0.02128	0.11248	0.31501	0.71128	0.81027

Xos chastotaning beshta modasini k ga bog‘liq o‘zgarishi 2-jadvalga keltirilgan. Plastinka reologik xususiyatlarini hisobga olish chastotani haqiqiy va mavhum qismini 10% kamaytirishga imkon berar ekan. Shunday qilib biriktirilgan massalari bo‘lgan doiraviy plastinkaning dissipativ bir jinsli va bir jinsli bo‘lmagan mexanik tizimlarning erkin tebranishlari muammosini hal qilishning matematik qo‘yilishi va yechish metodikasi ishlab chiqilgan. Dissipativ mexanik tizim elementlari uchun kuchlanish va deformasiyalar orasidagi bog‘liqlik chiziqli irsiy Bolsman-Voltera munosabatlarini qanoatlantiradi.

Xulosalar

1. Nuqtali tayanchlari va biriktirilgan massalari bo‘lgan plastinkalar iborat dissipativ bir xil va bir jinsli bo‘lmagan mexanik tizimlarning erkin va majburiy tebranishlari muammosini matematik qo‘yilishi, yechish metodikasi va algoritimi

ISSN 3030-3907

ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan algoritimning ishonchliligi sonli tajtiba asosida isbotlangan;

2. Tayanchlar va yig‘ilgan massasi bo‘lgan dissipativ bir jinsli (va bir jinsli bo‘lmagan) qobiqlar tizimlarining (erkin va majburiy) tebranishlari muammolari hal qilinadi. Butun tizimning dissipativ xususiyatlarini tavsiflash uchun I.E . Troyanovskiy va I.I. Safarov tomonidan kiritilgan global so‘nish (demfirlash) koeffisienti (GSK) tushunchasidan foydalanildi.

ADABIYOTLAR

1. C. Guo, L. Tao, Q. Wang, B. Qin, A. Wang, and X. Shi, “Free vibration characteristics of concentric stiffened rectangular plates determined based on spectral Tchebyshev technique,” Appl. Acoust., vol. 191, 2022, Art. no. 108670. https://doi.org/10.1016/j.apacoust.2022.108670.Search in Google Scholar

2. 43. D. Vasara, S. Khare, H. K. Sharma, and R. Kumar, “Free vibration analysis of functionally graded porous rectangularcircular and annular plates using differential quadrature method,” Forces Mech., vol. 42, 2022, Art. no. 100126. https://doi.org/10.1016/j.finmec.2022.100126.Search in Google Scholar

3. M. Chauhan, S. Dvivedi, R. Jha, V. Ranjan, and P. Sathujoda, “Sigmoid functionally graded plates embedded on Winkler-Pasternak foundation: free vibration analysis by dynamic stiffness method,” Compos. Struct., vol. 288, 2022,Art.no. 115400. https://doi.org/10.1016/j.compstruct.2022.115400.Search in Google Scholar

4. 45. M. O. Belarbi, A. A. Daikh, A. Garg, et al.., “Bending and free vibration analysis of porous functionally graded sandwich plate with various porosity distributions using an extended layerwise theory,” Arch. Civ. Mech. Eng., vol. 23, no. 1, pp. 1–24, 2022. https://doi.org/10.1007/s43452-022-00551-0.Search in Google Scholar

5. Mirsaidov M. M., Safarov I.I., Teshaev M. Kh.Dynamics of Structurally Inhomogeneous Lamellar and Shell Mechanical Systems. Part 1.Journal of Applied Mathematics and Physics Vol.7 No.10, October 14, 2019 . DOI: 10.4236/jamp.2019.710155

ISSN 3030-3907

CHAQIRQQACHA HARBIY TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARI IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Saidov Ixtiyor Mizrabovich
Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litsey, direktor
E-mail: saidovixtiyor5@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada chaqirqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy, amaliy va metodik asoslari yoritiladi. “Ijtimoiy pedagogika” fanining imkoniyatlari, talabalar shaxsida shakllanishi lozim bo‘lgan fazilatlar, xalq pedagogikasi va milliy tarbiya tamoyillarining integratsiyalashgan holda qo‘llanishi ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda adabiyotlar tahlili, sotsiopedagogik yondashuvlar, kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-madaniy kompetentlik, ijtimoiy pedagogika, milliy tarbiya, xalq pedagogikasi, harbiy ta’lim, ijtimoiylashuv, kompetensiyalar.

Abstract: This article explores the theoretical and practical foundations of socio-cultural competence development among pre-military education students. It analyzes the potential of Social Pedagogy in shaping students’ values and behavior, the influence of national upbringing, ethnopedagogy, and gender-specific approaches. The study uses literature analysis, sociopedagogical methods, and competence assessment tools to develop methodological recommendations.

Keywords: socio-cultural competence, social pedagogy, national upbringing, military education, socialization.

Аннотация: В статье раскрываются теоретические и практические основы развития социально-культурной компетентности у студентов довоенной военной подготовки. Анализируются возможности предмета «Социальная педагогика», влияние национального воспитания, этнопедагогики и гендерных особенностей на процесс социализации. Использованы методы анализа литературы, социопедагогические подходы и механизмы формирования компетенций.

Ключевые слова: социально-культурная компетентность, социальная педагогика, национальное воспитание, этнопедагогика, военное образование, социализация.

Kirish

Yangi O‘zbekistonda islohotlar avj olayotgan hozirgi paytda pedagogik fanlarni integrativ o‘qitish asosida talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini yaratish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish masalasi kam o‘rganilgan pedagogik muammo

ISSN 3030-3907

hisoblanadi. Shu ma’noda chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning ilmiy va metodik asoslarini takomillashtirish ustuvor vazifalardan biridir. Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik ta’limning, ayniqsa “Ijtimoiy pedagogika” fanining imkoniyatlaridan unumli foydalanish, “Ijtimoiy pedagogika”ning talaba-yoshlarni ijtimoiylashuv jarayonlariga tayyorlashdagi metodik imkoniyatlarini o‘zlashtirishlariga yo‘naltirish dolzarб vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sh.M. Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida yoshlarni ma’naviy barkamollik ruhida tarbiyalash muhim vazifa sifatida belgilangan bo‘lib, bu matnda ham aniq aks ettirilgan. Bundan tashqari Yu.V. Vasilykova, A.V. Mudrik, I.P. Podlasiylarning “Ijtimoiy pedagogika bo‘yicha ilmiy qarashlar” maqolasi, O. Musurmonova, H. Jabborovning “O‘zbek pedagogikasida ijtimoiy tarbiya” nomli maqolasi o’rganildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ijtimoiy pedagogika, garchi u avvaldan yurtimizda “ijtimoiy tarbiya”, “ijtimoiy muhofaza”, “ijtimoiy yordam” ko‘rinishida mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, pedagogik bilim sohasi va mustaqil fan sifatida O‘zbekistonda o‘tgan asrning oxirlarida shakllandi. Ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan hodisalarga o‘tgan asrning o‘rtalarida boshlangan ijtimoiy tarbiyaning diskreditatsiyalashuvi, mahalliy olimlar va pedagoglarni xorijlik hamkasblaridan ajratgan “temir parda”, umuminsoniy qadriyatlarni sinfiy qadriyatlarga almashtirilishi, ijtimoiy muammolar haqida “jim turish” siyosati, rahmdillik, mehr-muruvvat an’analarining e’tibordan chetda qolishi kabilar misol bo‘la oladi.

Bundan tashqari hozirgi vaqtda ijtimoiy hayotimizga, turmush tarzimizga yot bo‘lgan ijtimoiy illatlarning ham suqulib kirib kelishi ayrim kishilar, ayniqsa, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shunday ekan, salbiy og‘ishlar girdobiga kirgan shaxslar bilan tarbiyaviy ishlar ko‘lamini kuchaytirish, ta’sir ko‘rsatishning darajasini oshirishni taqozo etadi. Bu xususda prezident Sh.M. Mirziyoyev o‘zining barcha nutq va asarlarida, ayniqsa, «Yangi O‘zbekiston strategiyasi» kitobida alohida ta’kidlab, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining markazini tashkil etilishini uqtiradi. Buning uchun esa keng omma, shu jumladan, salbiy og‘ishga moyil bo‘lgan shaxslar bilan shug‘ullanishning faol yo‘l, usul, vositalarini aniqlash, ularga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning uslubiyotini ishlab chiqish zarur. Bunday mas’uliyatli ish esa umumiy pedagogikaning alohida sohasi bo‘lgan «Ijtimoiy pedagogika»ning zimmasidadir. Chunki, tarbiyaviy ish nafaqat ta’lim muassasalarida, balki, ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Keyingi yillarda pedagogika yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlarining pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishida “Ijtimoiy pedagogika” fani o‘qitilib kelinmoqda. Bizningcha, bu fanni barcha oliy o‘quv yurtlarining mavjud barcha ta’lim yo‘nalishlarida o‘qitilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Sababi shundaki, mazkur o‘quv yurtlarini tamomlab, tegishli joyga mutaxassis bo‘lib kelganlar o‘z navbatida o‘zi faoliyat ko‘rsatayotgan obyektda ijtimoiy vazifasini ham bajaradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Ijtimoiy pedagogika” fani asosida talabalarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish zarurligini quyidagi holatlar talab etayotgan edi: Birinchidan, bugungi kunda ta’lim va tarbiya maqsadi bilan uning ba’zi natijalari o‘rtasidagi qarama-qarshilik sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlash zarurligi talab etilmoqda. Ushbu talab pedagogika olamiga jamiyatdagi munosabatlar bilan shug‘ullanuvchi ijtimoiy ta’lim-tarbiyani olib kirish zaruriyatini uyg‘otdi. Chunki ongli xususiyatga ega bo‘lgan inson faoliyati, ijtimoiy pedagogika fanining o‘ziga xos ob’ektini tashkil etadi. Har bir shaxsning jamiyatdagi o‘z o‘rnini, o‘zligini anglash, hayotiy-axloqiy me’yorlarni o‘zida mujassam etishi jamiyatda shu ma’naviy-axloqiy sifatlarni namoyon etib, ijtimoiy hayotimiz, zamonamiz bilan hamnafas yoshlarni tarbiyalashda “Pedagogika” va “Ijtimoiy pedagogika” fanlarining hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Vaholanki ta’lim-tarbiyaning o‘zi ijtimoiy hodisa va pedagogik jarayondir.

Ikkinchidan, chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishdagi vazifalarini amalga oshirishda, shuningdek, ularni hal qilish mexanizmini yaratish kabi yangi muammolarning yechimini topish uchun pedagogik va sotsiologik tushunchalarning tutashligiga asoslangan yangi metodologiyani talab etmoqda. Jamiyatga insonlar ongini, tafakkurini ijobiy tomonga o‘zgartirish ijtimoiy-ma’rifiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, uni ilmiy jihatdan o‘rganish muhimdir. “Pedagogika” va “Ijtimoiy pedagogika”ni tutashganligi tufayli yuzaga kelgan muammolar o‘zbekistonlik olimlarning diqqat-e’tiborini ham o‘ziga tortmoqda.

Uchinchidan, yangi O‘zbekistonda kechayotgan ma’naviy va ijtimoiy islohotlarni, umuman, jamiyatni «pedagog so‘zi» bilan o‘rganish ijtimoiy pedagogikaning muammolaridan bo‘lib hisoblanadi. Eng asosiysi, ijtimoiy hayotda shunday holatlar uchraydiki, bunda bolalar, o‘smirlar, tarbiyachilar bunday og‘ir vaziyatda o‘zlariga ruhiy malham bo‘ladigan ijtimoiy pedagogning yordamiga muhtoj bo‘ladi. Demak, bugungi jamiyatimiz asoslarida psixolog bilan bir qatorda ijtimoiy pedagogga bo‘lgan ehtiyoj ham sezilmoqda. Demak, ta’lim-tarbiya muassasalaridan tashqari tarbiyaviy ta’sirlar, ya’ni kundalik ijtimoiy voqeliklarning shaxsga ko‘rsatayotgan ta’siri, ularni ijtimoiy pedagogik, ilmiy,

ISSN 3030-3907

nazariy va amaliy o‘rganish, pedagogikada shu kungacha yetarlicha e’tibor berilmagan ijtimoiy pedagogikaga zaruratni vujudga keltirmoqda.

1. Talabalarda shakllantirilishi zarur kompetensiyalar

Ijtimoiy kompetensiyalar: muloqot madaniyati, mustaqil fikrlash, ijtimoiy moslashuvchanlik, jamoa bilan ishlash ko‘nikmalari.

Madaniy kompetensiyalar: milliy qadriyatlarni anglash, ma’naviy fazilatlar, milliy xarakterga xos sifatlar.

Shaxsiy kompetensiyalar: o‘zini-o‘zi bilish va boshqarish, rejalashtirish, o‘zini baholash, mas’uliyat.

2. Genderga xos fazilatlar

Siz yuborgan matnda berilganidek, o‘g‘il bolalar va qizlar uchun ijtimoiy fazilatlar tizimi:

o‘g‘il bolalar uchun: jasorat, mas’uliyat, qat’iyat, vatanparvarlik

qizlar uchun: iffat, hayo, muloyimlik, mehnatsevarlik, oila qadriyatlari

3. “Ijtimoiy pedagogika” fanidagi taklif etilgan mavzular

Siz bergan 2.1 va 2.2-jadvaldagi mavzular asosida:

ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlar,

mustaqil ta’lim mavzulari,

ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirish kabi yo‘nalishlar ishlab chiqilgan.

4. Talabalarda rivojlanadigan asosiy fazilatlar

Matndagi ko‘plab fazilatlar asosida: vatanparvarlik, halollik, bag‘rikenglik, tashabbuskorlik, o‘zini-o‘zi boshqarish, xulq-atvor me’yorlari.

5. Natijalar

Talabalarda ijtimoiy faollik oshdi.

Madaniy qadriyatlar bo‘yicha bilimlar mustahkamlandi.

O‘zini-o‘zi boshqarish ko‘nikmalarining oshgani aniqlandi.

Jamoaviy ishlash sifati yaxshilandi.

Deviant xulqning oldini olish bo‘yicha natijalar ijobiy bo‘ldi.

Bugungi tezkor davrda “Ijtimoiy pedagogika” fani asosida talabalarining ijtimoiy kompetentligini quyidagi sifatlarning shakllanishi asosida ro‘y beradi. Ularga: muqobillik – turli masalalar bo‘yicha takliflarni ko‘p variantli ishlab chiqish qobiliyati; moslashuvchanlik – ijtimoiy munosabatlar va vaziyatlardagi o‘zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish qobiliyati; intizomlilik – ijtimoiy munosabalarda va faoliyat yuritishda intizom qoidalarini hurmat qilish sifati; korporativlik – ijtimoiy faollikni namoyon qilishda va faoliyat yuritishda manfaatlar va harakatlarning umumiyligini ta’minlashda jamoa manfaatlari uyg‘unligi; shaxsiy mas’uliyatlilik – o‘z majburiyatlarini anglash va shu asosda faoliyat yuritish qobiliyati; ilmiylik – ijtimoiy faoliyatda ilm-fan yutuqlariga tayanish, ilmiy dunyoqarash asosida faoliyatni olib borish; tezkorlik – o‘z vaqtida

ISSN 3030-3907

qarorlar qabul qilish va munosabat bildirish qobiliyati; rejaliIik – barcha ishning boshlanishi, uzoq muddatli rejalarni va ijtimoiy faollik nisbatlarini belgilash hisoblanadi.

Shuningdek, “Oila pedagogikasi” fanining bakalavr talabalarga oilaviy hayot haqida bilim berish va oilada bolalarni tarbiyalash mazmuni, shakl, metod va vositalarini o‘rgatishdan iborat bo‘lib, mana shu vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning oilaviy an’analarini ham yoritish va bo‘lajak pedagoglarga singdirish vazifalari kelib chiqadi. Mazkur maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni amalga oshiradi: talabalami oilada bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashga o‘rgatish; oila tarbiyasining o‘ziga xosliklari bilan tanishtirish; oilada bolalarni tarbiyalashning samarali shakl, metod va vositalarini tanlay olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Shu ma’noda chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar sifatida:

– “Ijtimoiy pedagogika” va “Xalq pedagogikasi” fanlari asosida talabalarda milliy-ma’naviy tarbiya indikatorlari (aniqlashtirish) hamda kompetensiyalarini shakllantiruvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni ta’lim mazmuniga keng singdirish;

– o‘quv fanlari doirasidagi ijtimoiy-ma’naviy tarbiya indikatorlarini amaliyotga joriy etish, ularni amaliyotda qo‘llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq va topshiriqlar bilan boyitish (ma’naviy-axloqiy kompetensiyalar);

– ijtimoiy muvaffaqiyatga intiluvchan talaba-qizlardagi motivatsiyalarning mustahkamlanishi;

– talabalarning o‘z xulq-atvor va faoliyatini nazorat qilishidagi ijtimoiy tushunchalarini farqlash va ularni anglash;

– o‘zining va atrofdagilarning xulqi, hatti-harakatlariga munosabat bildirish, mehnatsevarlikka o‘rgatish;

– yoshi ulug‘ insonlar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish motivlarini shakllantirish;

– bilimlarning boyishi, mukammallashuvi, ma’naviy-axloqiy ko‘nikma va malakalarining rivojlanishi;

– o‘z xalqining va boshqa qardosh xalqlarning boy an’analari, qadriyatlarini o‘rganishga qiziqishning namoyon bo‘lishi;

– ijtimoiylashuv jarayonidagi amalga oshiriladigan yoshiga xos fazilatlarni shakllantirish;

– vijdonan mehnat qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish, mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko‘rsatish;

– muvaffaqiyatga yetaklaydigan motivatsiyalarni kuchaytirish;

– o‘zini-o‘zi baholashga o‘rgatish;

ISSN 3030-3907

– faoliyatda o‘zini namoyon etishga intilishni rag‘batlantirish;

– tengdoshlari bilan ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy munosabatlar tajribasini boyitish;

– milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish belgilanib berilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Chaqirqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishidagi talabalar uchun ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish – bu faqat pedagogik jarayon emas, balki ma’naviy, psixologik va sotsial jarayonlarning uyg‘un tizimidir. “Ijtimoiy pedagogika”, “Xalq pedagogikasi”, “Milliy tarbiya” fanlarining integratsiyasi bu jarayonning metodik poydevorini tashkil etadi.

Takliflar:

Oliy ta’lim muassasalarida “Ijtimoiy pedagogika” faniga kompetensiya asosidagi yangi modullar kiritish.

Talabalarda o‘zini-o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini mustahkamlovchi treninglar o‘tkazish.

Genderga mos tarbiya metodikalarini ishlab chiqish.

Xalq pedagogikasining ijtimoiy tarbiya bo‘yicha mavzularini amaliyotga keng tatbiq etish.

“Harbiy ijtimoiylashuv” modullarini yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni. — Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi” bo‘yicha qarorlari va farmonlari.
4. Василькова, Ю. В. Социальная педагогика. — Москва: Академия, 2019.
5. Мудрик, А. В. Социализация личности. — Москва: МПСИ, 2018.
6. Подласый, И. П. Педагогика. — Москва: Владос, 2020.
7. Мусурмонова, О. Миллий тарбия асослари. — Тошкент: Fan va texnologiya, 2021.
8. Жабборов, Ҳ. Психология фанлари бўйича тадқиқотлар. — Тошкент, 2020.
9. Хамидов, А. Ижтимоий педагогика асослари. — Тошкент: O‘qituvchi, 2018.
10. Назаров, Қ., ва бошқ. Педагогика назарияси ва amaliyoti. — Тошкент: Fan, 2019.
11. UNESCO. Education for Sustainable Development: Pedagogical Approaches. — Paris, 2020.
12. OECD. Key Competencies for the Future. — Paris, 2019.

ISSN 3030-3907

SYNTHESIS AND CHARACTERIZATION OF PHOTO- AND ELECTROACTIVE NANO-SIZED POLYMERS BASED ON ZN AND CU DIAMINE COMPLEXES

Begamov B. X,
Doctoral student of the Termez State University of Engineering and Agrotechnology
Qodirov R. A.
Doctoral student of the Termez State University of Engineering and Agrotechnology
Tovoshareva I. E.
Student of Termez State University of Engineering and Agrotechnology

Abstract: This study explores the synthesis and characterization of nano-sized photo- and electroactive polymers incorporating Zn and Cu diamine complexes. The synthesized materials were analyzed using spectroscopic, electrochemical, and microscopic techniques to evaluate their structural, optical, and electronic properties. The results indicate that these polymers exhibit significant potential for applications in optoelectronics, sensors, and energy storage devices. The study also examines the effects of different polymerization conditions and ligand modifications on the material properties.

Keywords: Zn diamine complex, Cu diamine complex, electroactive polymers, photoactive polymers, nanomaterials, optoelectronics

Аннотация: В данном исследовании рассматривается синтез и характеристика наноразмерных фото- и электроактивных полимеров, включающих диаминные комплексы цинка (Zn) и меди (Cu). Синтезированные материалы были проанализированы с использованием спектроскопических, электрохимических и микроскопических методов для оценки их структурных, оптических и электронных свойств. Результаты показывают, что эти полимеры обладают значительным потенциалом для применения в оптоэлектронике, сенсорах и устройствах накопления энергии. В исследовании также изучается влияние различных условий полимеризации и модификаций лигандов на свойства материалов.

Ключевые слова: комплекс диаминов цинка (Zn), комплекс диаминов меди (Cu), электроактивные полимеры, фотоактивные полимеры, наноматериалы, оптоэлектроника

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot Zn va Cu diamin komplekslarini o‘z ichiga olgan nanoo‘lchamli foto- va elektroaktiv polimerlarning sintezi va xarakteristikasini o‘rganadi. Sintez qilingan materiallar ularning struktura, optik va elektron xususiyatlarini baholash maqsadida spektroskopik, elektroximik va mikroskopik usullar yordamida tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ushbu polimerlar

ISSN 3030-3907

optoelektronika, sensorlar va energiya saqlash qurilmalarida qo‘llash uchun katta imkoniyatga ega. Tadqiqot shuningdek, turli polimerizatsiya sharoitlari va ligand modifikatsiyalarining material xususiyatlariga ta’sirini ham o‘rganadi.


Kalit so‘zlar: Zn diaminli kompleksi, Cu diaminli kompleksi,elektroaktiv polimerlar, fotoaktiv polimerlar, nanomateriallar, optoelektroniklar


1. Introduction

Photo- and electroactive polymers have garnered substantial attention due to their applications in electronic and optoelectronic devices, such as organic solar cells, light-emitting diodes (OLEDs), and electrochromic devices. Among them, transition metal-based polymers, particularly those incorporating Zn and Cu, exhibit enhanced electronic properties. Zn-based complexes are known for their strong fluorescence, high charge transport capabilities, and photostability, while Cu-based systems offer redox activity, making them suitable for electrochemical applications.

Diamine ligands are organic molecules equipped with two or more amino groups (–NH_2), whose primary characteristic is the ability to form stable coordination complexes with d-metal ions. When ligands bind to a metal ion, they donate electron density to the metal center and create pathways for electron transfer in polymer systems, which significantly enhances photo- and electroactive properties.Types of diamine ligands and their properties.

Ethylenediamine (en, $H_2N–CH_2–CH_2–NH_2$):







Ethylenediamine is the simplest and most widely used diamine. It binds to the metal center through its bidentate donor atoms and forms octahedral, square planar, or tetrahedral complexes. Due to the chelate effect, complexes of the type $[M(en)_2]^{2+}$ exhibit high thermodynamic stability. Additionally, the small molecular weight, flexibility, and adaptability of ethylenediamine make it an ideal ligand for precisely positioning metal nodes in nanoscale polymer systems.

Diethylenetriamine (dien, $H_2N–CH_2–CH_2–NH–CH_2–CH_2–NH_2$):


ISSN 3030-3907






This ligand contains three amino groups, allowing it to form tridentate coordination with a metal center. Diethylenetriamine optimizes the electron density of the metal ion, ensuring high stability in octahedral geometrical complexes. Therefore, dien is an important tool for controlling the spectral and thermal properties of the metal center.

Phenylenediamine and its derivatives:





Phenylenediamines are amino groups attached to an aromatic ring, and their electronic effects lead to significant changes in binding with the metal center. The aromatic group either donates π-electron density to the metal center or redistributes the electron cloud, enhancing the photo- and electroactive properties of the complex. Consequently, phenylenediamines are widely used in sensor materials, OLED devices, and the production of photoactive polymers.

Coordination and Electronic Effects:

When diamine ligands bind to a metal center, their σ-donor properties transfer electron density to the metal ion. This stabilizes the metal center and enhances both kinetic and thermodynamic stability. Meanwhile, aromatic or substituted ligands exhibit π-acceptor behavior, allowing electron density to redistribute along the metal center. As a result, the metal–ligand complex achieves high stability and ensures precise positioning of the metal center and formation of electron transfer pathways in polymer systems.

The incorporation of diamine ligands into polymeric frameworks enhances the stability and conductivity of these materials. By varying the ligand structures and polymerization methods, it is possible to tailor the properties of these materials for specific applications. This paper focuses on the synthesis of such polymers with nano-sized structures and investigates their physicochemical properties.

2. Materials and Methods

ISSN 3030-3907

2.1 Materials

$ZnCl_2$, $CuCl_2$, ethylenediamine, and various derivatives based on diamines were obtained from commercial suppliers and used without further purification. These chemicals were selected for their defined roles in coordination chemistry, particularly in facilitating complex formation, stabilizing reaction intermediates, and providing a controllable ligand environment during synthesis processes. All reagents met the purity specifications provided by the manufacturers, ensuring reproducible reaction conditions and reliable experimental results. Storage and handling were carried out under standard laboratory conditions in accordance with the recommended guidelines.

2.2 Synthesis of Zn and Cu Diamine Complexes

Zn and Cu diamine complexes were synthesized by reacting $ZnCl_2$ and $CuCl_2$ with ethylenediamine and related diamine ligands in anhydrous conditions. The reaction was carried out at room temperature with continuous stirring, followed by solvent evaporation and purification via recrystallization.

2.3 Polymerization Process

The synthesized metal-diamine complexes were polymerized using oxidative polymerization techniques. Different monomers such as aniline, pyrrole, and thiophene derivatives were used to enhance conductivity, mechanical stability, and processability. Polymerization was conducted in an inert atmosphere at controlled temperature conditions, with reaction times varying from a few hours to several days to optimize the polymer structure.

2.4 Characterization Techniques

- **Spectroscopic Analysis:** UV-Vis, FTIR, and fluorescence spectroscopy were employed to examine the optical properties and molecular interactions.
- **Electrochemical Studies:** Cyclic voltammetry and electrochemical impedance spectroscopy (EIS) were conducted to assess redox behavior and charge transfer characteristics.
- **Microscopic Analysis:** SEM and TEM imaging were used to investigate the morphology and nanoscale structuring of the synthesized polymers.
- **Thermal Analysis:** Thermogravimetric analysis (TGA) and differential scanning calorimetry (DSC) were performed to evaluate the thermal stability of the polymers.
- **X-ray Diffraction (XRD):** XRD was used to determine the crystalline nature and phase composition of the synthesized materials.

3. Results and Discussion

3.1 Structural and Optical Properties

Ultraviolet–Visible (UV-Vis) spectroscopy and fluorescence emission studies revealed that Zn-based polymers exhibit pronounced absorption and strong

ISSN 3030-3907

photoluminescence, highlighting their potential as active materials in photonic and optoelectronic applications. The intense absorption bands in the UV-Vis spectra are indicative of π–π* and metal-to-ligand charge transfer transitions, while the corresponding fluorescence emission profiles confirm efficient radiative recombination of excited states within the polymer matrix. These optical features suggest that Zn-coordinated polymer networks can serve as promising candidates for light-harvesting systems, organic light-emitting diodes (OLEDs), or fluorescent sensors. In contrast, Cu-containing polymers demonstrated significant redox activity, as evidenced by cyclic voltammetry and UV-Vis spectral responses. This pronounced electrochemical behavior points to their potential utility in energy storage, electrocatalysis, and other electrochemical applications. The redox-active nature of Cu-polymers may also facilitate electron transport within the polymer framework, enhancing their suitability for sensor or conductive device applications. Fourier Transform Infrared (FTIR) spectroscopy provided further structural insights, confirming the successful integration of metal-diamine complexes into the polymeric network. Characteristic vibrational modes associated with M–N (metal–nitrogen) and ligand backbone stretching were clearly observed, validating the formation of stable coordination bonds between the metal centers and the diamine ligands. These observations collectively indicate that the structural incorporation of metal complexes not only stabilizes the polymer architecture but also modulates its electronic and optical properties, providing a versatile platform for designing functional materials with tailored photophysical and electrochemical behaviors.

3.2 Electrochemical Behavior

Cyclic voltammetry (CV) analyses demonstrated that Cu-based polymers possess well-defined and reversible redox transitions, indicating stable electron-transfer processes within the polymer matrix. The reversibility of these redox couples suggests the presence of robust Cu–ligand coordination environments that can withstand repeated oxidation–reduction cycles without significant structural degradation. Such electrochemical stability makes Cu-containing polymers attractive candidates for advanced applications including rechargeable energy storage systems, electrochromic devices, and catalytic processes involving electron mediation. In particular, the strong redox activity may enable efficient charge shuttling, which is critical for electrocatalysis and redox-flow battery architectures. In contrast, Zn-based polymers exhibited notably high charge carrier mobility, as reflected by their electrochemical profiles and supported by conductivity measurements. This enhanced mobility is likely due to the more rigid coordination geometry of Zn-diamine complexes, which facilitates organized charge transport pathways within the polymer backbone. The superior charge mobility positions Zn-polymers as promising materials for photovoltaics, thin-film transistors, and other

ISSN 3030-3907

semiconductor-based technologies where rapid and stable charge separation and transport are essential. Electrochemical impedance spectroscopy (EIS) further revealed that both Zn- and Cu-based polymers possess moderate ionic conductivity. The impedance spectra indicate a combination of ionic and electronic transport mechanisms, which could be selectively tuned depending on the target application. Importantly, the conductivity can be significantly enhanced through strategic doping, incorporation of conductive fillers, or systematic modification of the diamine ligand structure to increase charge delocalization. These tunable electrochemical properties provide a pathway for optimizing the polymers for high-performance devices such as supercapacitors, ion-exchange membranes, or hybrid electrochemical–optical systems.

3.3 Morphological and Nano-structural Analysis

